

ОБРАЗОВАНИЕ,

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 46
Часть-6_ Июнь -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Июнь - 2024 год

ЧАСТЬ - 6



О‘ЗBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI

Sayfullayev Sirojjon Ikrom og‘li
«TIQXMMI» MTU ning Qarshi irrigatsiya va
agrotexnologiyalar instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan xorijiy investitsiyalar qo‘shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investorlarga to‘liq tegishli bo‘lgan korxonalarni yaratish, xususiylashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo‘lish, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishda juda katta va muhim ahamiyatga egaligi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: investitsiya, aksiya, obligatsiyalar, sof foyda, kredit, xarajat, davlat korxonasi, texnologiya, omonatlar, banklar, foyda, amortizatsiya, soliq.

Аннотация: В статье показано значение иностранных инвестиций в развитии экономики Узбекистана, в том числе иностранных инвестиций, создания совместных предприятий, создания предприятий, полностью принадлежащих иностранным инвесторам, участия в приватизации, создания банка с иностранными партнерами, ценных бумаг. право покупать землю, использовать землю и другие природные ресурсы и действовать в свободных экономических зонах очень важно.

Ключевые слова: инвестиции, акции, облигации, чистая прибыль, кредит, расход, государственное предприятие, технология, сбережения, банки, прибыль, амортизация, налог.

Abstract: The article shows the importance of foreign investments in the development of the economy of Uzbekistan. Including foreign investments, establishing joint ventures, creating enterprises fully owned by foreign investors, participating in privatization, establishing a bank with foreign partners, securities It is considered that the right to buy land, to use land and other natural resources, and to operate in free economic zones is very important.

Key words: investment, stock, bond, net profit, loan, expense, state enterprise, technology, savings, banks, profit, depreciation, tax.

Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yo‘naltirilgan har qanday shakldagi mulkni to‘la qonli ravishda xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin. Ammo shunday mulk shakllari borki, biz ularni xorijiy investitsiya deya olmaymiz. Masalan,

elchixona chet davlat mulki hisoblanadi, yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa bu xorijiy shaxs mulki hisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya bo'la olmaydi.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

«Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida «Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi». Xorijiy investitsiyalarining umumiy ta'rifi F. Xeniusning 1947 yil AQShda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2-nashrida quyidagicha berilgan: «Xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport kilingan investitsiyalar».

Chet el investitsiyalari deyilganda chet mamlakatlarning milliy iqtisodiyotga moddiy, moliyaviy va nomoddiy ko'rinishidagi muddatli qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: qo'shma korxonalarini tashkil qilishda o'z ulushi bilan qatnashish, xorijiy sarmoyadorlarga to'la tegishli bo'lgan korxonalarini barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan qimmatli qog'ozlarni, shuningdek, zayom va kreditlar olish.

Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi.

Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarini yaratish, xususiyalashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo'lish, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishda juda katta va muhim ahamiyatga egadir.

Xorijiy investitsiyalarga asosan 2 guruh omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) iqtisodiy omillar:

-ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining bir maromda ushlab turilishi;

-jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta'siri ostida olib borilishi);

-ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperasiyalashuvining chuqurlashuvi;

-jahon iqtisodiyoti transmilliylashtirilishining o'sib borishi (masalan, AQSh transmilliy korporasiya (TMK)lari xorijiy filiallarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi AQSh tovar eksportidan 4 marotaba ortiqdir);

-ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integrasiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;

-xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol rivojlanishi va boshqalar.

2) siyosiy omillar:

-kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (erkin iqtisodiy hududlar (EIX), offshor hududlari va boshqalar);

-rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish;

-iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususi sektorini va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);

-bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.

Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan kurollanish, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarini tiklashning asosiy vositadir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarish zamonaviy, raqobatdoshlar tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib boradi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi va mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning hal bo'lishiga olib keladi.

O'zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. O'zbekiston jahon hamjamiyati oldida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol uynaydi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri investitsiyalar tushunchasi bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o'zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko'rsatadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalarining sonini tobora ortib borishi va barpo etilayotganligi hukumatimizning bu sohaga bo'lgan katta e'tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarini iqtisodiy rag'batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. Investitsiya muhiti – bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui. Investitsiya muhiti eng avvalo quyidagi iqtisodiy omillar orqali belgilanadi: tabiiy shart-sharoitlar, shu jumladan foydali qazilmalar zaxiralari, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish haqi

darajasi, iqtisodiy kon'yunktura holati, ichki bozor sig'imi hamda tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning belgilanganligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon qulay investitsiya muhitini yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investision faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish va bular asosida milliy iqtisodiyotimizni barqaror va dinamik rivojlanishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1213-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2019 yilga investision dasturi haqida»gi Qarori tasdiqlangan bo'lib, ushbu dastur asosidagi kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida bank tizimi investision kreditlarning ahamiyati yuqori bo'lmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinish va bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga, shuningdek, xususiy tadbirkorlik subyektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bunda chet el investitsiyalar oqimini rag'batlantirish, shu bilan birga milliy iqtisodiyot subyektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o'rinda turadi. Shunday qilib davlat tomonidan investitsiya munosabatlarini tartibga solishning vazifasi, bir tomondan, bevosita chet el investitsiyalari oqimini oshirishdan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik subyektlarining qo'yilmalarini kengaytirishdan iborat bo'ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2014 yil 10 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4609-sonli Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi 4434-sonli Farmoni.

6. Vahabov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: NOSHIR, 2011. – 712 s.

7. Gershman, M.A. Innovatsionniy menedjment – M.: Market DS Korporeyshn, 2010. – 482 s.

8. Golov R.S., Baldin K.V., Perederyaev I.I. Investitsionnoe proektirovanie: Uchebnik – M.: Dashkov i Ko, 2010. - 368 s.

9. Goncharenko L. Menedjment investitsiy i innovatsiy. Uchebnik. – M.: "KNORUS", 2011 g. – 160 str. 10. Igoshin N.V. Investitsii. Organizatsiya, upravlenie i finansirovanie: Uchebnik. – M.: YuNITI-DANA, 2012. – 360 s.

JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING O'RNI

Sayfullayev Sirojjon Ikrom o'g'li

*«TIQXMMI» MTU ning Qarshi irrigatsiya va
agrotexnologiyalar instituti talabasi*

Annotatsiya: Maqolada jahon iqtisodiyotining globallashuvida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati. Shuningdek globallashuv jarayoniga qo'shilishi ya'ni bu dunyoning yetakchi davlatlari bilan hamkorlikda bo'lish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohadagi davlat siyosatining o'zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, globallashuv, raqobat, jahon iqtisodiyoti, xorijiy investitsiyalar, investorlar, iqtisodiy islohotlar.

Аннотация: В статье рассматривается значение иностранных инвестиций в глобализации мировой экономики, а также рассматривается включение в процесс глобализации, то есть сотрудничество с ведущими странами мира, и совместимость государственной политики в социальной, экономической и политической сферах с мировой. политики этих стран на взаимовыгодной основе

Ключевые слова: инвестиции, глобализация, конкуренция, мировая инвестиции, иностранные инвестиции, инвесторы, экономические реформы.

Abstract: The importance of foreign investments in the globalization of the world economy is discussed in the article. It is also considered to join the globalization process, that is, to cooperate with the leading countries of the world, considering that the state policy in the socio-economic and political spheres is compatible with the policy of these countries on a mutually beneficial basis. will be released.

Key words: investments, globalization, competition, world economy, foreign investments, investors, economic reforms.

Globallashuv jarayoniga iqtisodiyotni erkinlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashishi, raqobatning kuchayishi va boshqa bir qator belgilar ham xosdir. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti uchun investision faollik va jahon iqtisodiyoti globallashuvining kuchayishi muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatlarning xalqaro mexnat taksimotidagi roli ortib borayotganligi ham unga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Investitsiyalar iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar hisoblansa, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui investitsiya faoliyati deb yuritiladi. Investitsiya faoliyati tadbirkorlik

faoliyatini amalga oshirishning bir ko'rinishidir, shuning uchun ham tadbirkorlikka xos bo'lgan belgilar, ya'ni mulkiy mustaqillik, tashabbuskorlik va tavakkalchilik unga ham xos bo'lgan xususiyatdir. Investitsiya faoliyatining obyekt moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish obyektlari hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatining subyektlaridan biri investor bo'lib, u o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga jalb etishni amalga oshiradi. Bunday o'ziga xos faoliyat subyektlarining yana bir katta guruhi mavjud bo'lib, ular investitsiya faoliyati ishtirokchilari deb yuritiladi va ularning asosiy vazifasi investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlash bo'lib hisoblanadi.

Globalashuv jarayoniga qo'shilish - bu dunyoning yetakchi davlatlari bilan hamkorlikda bo'lish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohadagi davlat siyosatining o'zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishidir. Globalashuv jarayoniga iqtisodiyotni erkinlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashishi, raqobatning kuchayishi va boshqa bir qator belgilar ham xosdir. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti uchun investision faollik va jahon iqtisodiyoti globalashuvining kuchayishi muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatlarning xalqaro mexnat taksimotidagi roli ortib borayotganligi ham unga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

MDH mamlakatlarining paydo bulishi bilan xorijiy investorlarning investision faoliyatlarini amalga oshirishdagi yangi imkoniyatlar maydoni paydo bo'ldi. Shuni aytish kerakki, xorijiy investorlar bu masalada katta tajribaga ega. Albatta bu masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni investitsiyalar qabul qiluvchi (MDH) davlatlar uchun zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini qabul qilishdagi investision tanlov imkoniyati yaratildi. Bunga oddiy hol deb qarash kerak emas, chunki, investitsiyalar-iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, uni olg'a siljituvchi kuchdir.

Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, har qanday davlat dunyodan ajralgan holda jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. O'zbekiston iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilgan ekan, xorijiy investitsiyalar rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'lumki xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanish garovi, iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Yaqin yillargacha faqat xom ashyo mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan O'zbekiston bugun dunyo xaritasida o'zining munosib o'rnini egallashga, boshqa taraqqiy topgan mamlakatlar, avvalambor, AQSh, G'arbdagi demokratik davlatlar, sharqdagi Yaponiya, Koreya, Malayziya yoki shunga o'xshash davlatlarga teng bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib

qo'yar ekan, bunda birinchi galdagi chet el sarmoyalari, chet el investitsiyasi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu davlatlarning tarixi shuni ko'rsatadiki, agar bu xorijiy malakatlarga sarmoya kelmasa, investitsiya kelmasa, hyech qachon bu davlatlar bugungi rivojlanish darajasiga ko'tarila olmas edi.

O'zbekiston bugungi kunda yirik xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qatoriga kirish uchun barcha iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslarga ega. Lekin bu degani O'zbekistonda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun barcha ishlar qilib bo'lindi, degani emas. Endigi navbatda bu asoslarga tayangan holda investitsiyalar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish masalalari turadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rni, salmog'i mazkur davlatdagi investision muhitning qanchalik qulayligini belgilaydi. Bu muhit ko'p jihatdan xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat olib borayotgan siyosatini va tashqi iqtisodiy faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishning xususiyatlari bilan baholanadi. Strategik investorlar ko'p miqdordagi mablag'larni birinchi navbatda iqtisodiyoti o'z ichki imkoniyatlari asosida barqaror va izchil ravishda rivojlanayotgan mamlakatga yo'naltiradi. Aynan shunday mamlakatlardagina qo'yilgan mablag'lar saqlanishiga va barqaror foyda olishga mo'ljal qilsa bo'ladi. Ichki va chet el investorlarini birinchi navbatda minimal darajadagi soliq imtiyozlari emas, balki biznesdagi keyingi qulay va maqbul istiqbollar qiziqtiradi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o'sishni ta'minlash, sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish, bandlilikni oshirish uchun salmoqli hajmdagi xorijiy kapitalni jalb etish bilan bog'liq iqtisodiy siyosatlari ham kapitallar migrasiyasini ragbatlantiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa investitsiya muhitini erkinlashtirish orqali xorijiy kapitalni jalb etish va bu orqali iqtisodiy rivojlanishga turtki berishga harakat qilishadi. Kapitallarning xalqaro harakatini rag'batlantiruvchi omillardan yana biri xalqaro moliyaviy tashkilotlar faoliyati bo'lib, ular kapitallar oqimini tartibga solib turishadi. Mamlakatlar o'rtasida tuzilgan daromadlar va kapitallarni ikki karra soliqqa tortishning oldini olish maqsadidagi xalqaro kelishuvlar o'z navbatida mamlakatlar o'rtasidagi savdo, ilmiy-texnik hamda investitsiyalarni jalb qilish borasidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Amalda dunyodagi barcha mamlakatlar BXI larni faol qo'llab-quvvatlashmoqda. Ularning erkin harakati uchun qulay muhit yaratishga intilmoqda, mavjud cheklanishlar bekor qilinmoqda, amaldagi bozor raqobati uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy jarayonlar hisoblanib, jahon bozori bilan o'zaro yaqin va to'liq bog'liqlikda bo'ladi. Shu nuqtai nazardan u ko'pgina iqtisodiy jarayonlarni o'zida qamrab oladi. Xorijiy investitsiyalar bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurish sur'atlarini tezlashtirish imkonini beradi. Eng muhim yo'nalish sifatida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni o'z

ichiga olgan investitsiya faoliyatining jadallashuvi bugungi kunda o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun ayni muddao. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy islohotlarga bog'liq.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, hozirgi sharoitda O'zbekiston kapitalni import qiluvchi mamlakat sifatida jahon maydoniga chiqmoqda. Bu borada bir qator milliy manfaatlar hisobga olinadi. Kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hozircha yetishmayotgan milliy resurslarni to'ldirishi, zamonaviy texnologiyalar, uskunalar, «nou xau»ni olib kirishi, xorijiy mutaxassislar, ekspert va konsultantlarni jalb qilish tufayli mahsulot sifati va ishchi kuchi malakasini oshirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, qo'shimcha ish joylari yaratadi, ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy kooperasiya tufayli mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuviga yordam beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2014 yil 10 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4609-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4434-sonli Farmoni.
6. Vahabov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: NOSHIR, 2011. – 712 s.
7. Gershman, M.A. Innovatsionniy menedjment – M.: Market DS Korporeyshn, 2010. – 482 s.
8. Golov R.S., Baldin K.V., Perederyaev I.I. Investitsionnoe proektirovanie: Uchebnik – M.: Dashkov i K o , 2010. - 368 s.
9. Goncharenko L. Menedjment investitsiy i innovatsiy. Uchebnik. – M.: "KNORUS", 2011 g. – 160 str. 10.Igoshin N.V. Investitsii. Organizatsiya, upravlenie i finansirovanie: Uchebnik. – M.: YuNITI-DANA, 2012. – 360 s.

МЕТАFORANING KUNDALIK HAYOTIMIZDAGI O'RNI

*Rustamova Nargiza G'ayratovna**Samarqand davlat chet tillar instituti,**Sharq tillari fakulteti, Lingvistika koreys tili**yo'nalishi 2-kurs magistranti**Eshimova Sharofat Kenjaboyevna**Koreys filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi***Annotatsiya**

Ushbu maqola ma'noni yetkazish usullaridan biri bo'lgan metafora hodisasi haqidadir. Biz uning o'ziga xos xususiyatlarini, ot turkumida kuzatilgan metafora hodisasini va metafora sodir bo'lganda yaratilgan ma'no va hosila ma'no o'rtasidagi referental munosabatni ko'rib chiqdik. Shu bilan birga, ular koreys va o'zbek tillaridagi misollar orqali tahlil qilinib, bir qancha tilshunos olimlarning fikr-mulohazalaridan misollar keltirildi. Metaforani tushunishning analogik tahlillari ham kiritilgan.

Kalit so'z va iboralar: metafora, ot metaforasi, suhbat maksimlari, analogik nuqtai nazar, atribut metafora, manba domeni, majoziy metafora, nominativ metafora, kognitiv metafora.

Abstract

In this study, one of the ways to convey meaning is the phenomenon of metaphor. We looked at its specific characteristics, the metaphor phenomenon observed within the noun group, and the referential relationship between the created meaning and derived meaning when metaphor occurs. At the same time, they were analyzed through examples in Korean and Uzbek languages, and examples of the opinions of several linguists were presented. Analogical analyzes of metaphor comprehension were also included.

Key words and expressions: metaphor, noun metaphor, conversational maxims, analogical perspective, attributive metaphor, source domain, figurative metaphor, nominative metaphor and cognitive metaphor.

Hayotimizda metaforalar biz duch keladigan va ishlatadigan keng tarqalgan ma'no ko'chishi hodisasidir. Agar siz lug'at yoki internetda metafora nima ekanligini qidirib ko'rsangiz, bu "ob'ektning asl ma'nosini yashirish va faqat yordamchi fikrlarni taqdim etish orqali ifodalovchi ritorika yoki metafora usuli" ekanligini bilasiz. Aslida ikki narsaning bir-biriga o'xshashligi asosida bir so'z bilan ikkinchisini atash metafora (yunoncha metaphore-ko'chirish) deb atalib, u so'z ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Narsa o'z xususiyat, shakl, harakat, rang, hid, hajm va shu kabi biror belgisiga ko'ra boshqa shu xususiyatga ega bo'lgan narsaning nomini oladi. Metafora usuli bilan bir so'zning ma'nosi ikkinchisiga ko'chganda, o'sha predmet uchun umumiy bo'lgan

belgi tushunchada saqlanib qoladi. Metafora usuli bilan ma'no ko'chirish asosan badiiy adabiyotlarda uchraydi. Bu yozuvchining fikrini ta'sirchan qiladi va uning badiiy estetik qobiliyatini namoyon qiladi. Shuning uchun ham shoir va yozuvchilar bilan badiiy asar yaratishda bunday tasviriy vositalar bilan do'st tutunishadi [Эшимова, Ш. К. (2022). PERSONIFIKATSIYA ORQALI OBRAZNING YARATILISHI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(4)]. Koreys tilshunosligida ham metafora orqali ma'no ko'chirish usulida quyidagi namunalarni ko'rishimiz mumkin:

남자는 배요 – (Erkak – kema)

여자는 항구이며 – (ayol – bandargoh)

그대는 풀잎이고 나는 햇살이다 - (sen o't tig'i, men esa quyosh nuriman)

Metaforalar haqiqatan ham hamma joyda mavjud. Ushbu metaforalarning qaysi biri omma orasida eng kuchli metafora namunasi deb o'ylaysiz? Koreys tilshunosi Chwi Won-ilning fikricha, eng mashhur metafora bu mebel kompaniyasining reklama shiori, "To'shak - bu ilmdir" (침대는 과학입니다). U bu reklamani birinchi marta 1993-yilda ko'rganman, demak, roppa-rosa 30 yil oldin edi deya ta'kidlaydi o'z nutqida [Chwi Won-il "Metafora – ma'lumotlarni qayta ishlashning kognitiv fani" 2023:3]. Ushbu reklama shiori shu qadar mashhur bo'lganki, u hatto yosh o'quvchilarning kontseptual bilimlariga ta'sir ko'rsatgan. Ushbu reklama shu qadar mashhurki, kompaniya 2023-yilda ham xuddi shu to'shak reklamasida ushbu iborani ishlatmoqda, faqat syujet va reklama modeli o'zgargan. Xo'sh, odamlar bu metaforalarni qanday tushunishadi? Metafora haqida o'ylashdan oldin, keling, umumiy metaforik iboralarni tushunish bo'yicha an'anaviy psixolingvistik nuqtai nazarni qisqacha ko'rib chiqaylik.

To'shak misolida ilm bo'lganidek, sen o't tig'isan, men esa kapalakman, "A – B" shaklidagi metafora nominal metafora deyiladi va u ayni paytda juda oddiy metafora turidir. Jamiyatimizda tez-tez ishlatiladi. Insonlar bu metaforik iboralarni qanday tushunishadi? Tilni tushunish modeliga ko'ra, insonlar tilni tushunish jarayonida doimo birinchi navbatda to'g'ridan-to'g'ri ma'noga yondashadilar. Ma'noni anglay olmaganda esa ko'chma ma'no haqida o'ylashadi. Keling, bir misol keltiraylik. O'zbek kitobxonlari orasida "Temir xotin" iborasi drama yoki Isamat Ergashevning 1990-yilda suratga olingan kinosi tushunilsa, tilshunoslar orasida bu metaforadir. Ushbu metaforada ayol kishini temirdan yasalgani emas, balki, uning irodasi metinligi, charchoq bilmas, ishga chanqoqligi kabi xislatlarni o'z ichiga jam qilganligi aks ettirilgan. Koreys kitobxonlari orasida ham shunga o'xshash metafora mavjuddir. "Yo'lbars o'qituvchi" dramasi bilan aksariyat koreys kitobxonlari tanishdirlar. Buni "O'qituvchi yo'lbars" ko'rinishidagi metafora sifatida tasavvur qilish mumkin.

Majoziy ma'nosiga kelsak, o'qituvchi yo'lbarsdek, ya'ni o'quvchilarni qat'iy tartibga soluvchi, fe'l-atvori otashin, shijoatga to'la ustoz tushuniladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ma'lum bir gapning majoziy talqini ancha mos bo'lib ko'rinsa ham, birinchi navbatda so'zma-so'z talqin qilinishi kerak [Eshimova, S. K. (2022). KOREYS BADIYY ADABIYOTIDA PERSONIFIKATSIYANING IFODALANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 356-364.].

Britaniyalik faylasuf Gerbert Pol Grisning so'zlariga ko'ra, odamlar boshqalar bilan muloqot qilishni osonlashtirish uchun foydalanadigan to'rtta printsiptga ega bo'lib, ular suhbat maksimallari deb ataladi (Grice, 1989). Bularni qisqacha tanishtirib o'tadigan bo'lsak, birinchidan, sifat maksimali – to'g'risini aytish, ikkinchidan, miqdor maksimali – yangi gap aytish, uchinchidan, dolzarblik maksimali – dolzarb mavzuga aloqador biror narsani aytish, to'rtinchidan, usul maksimali – aniq gapirish. Ushbu maksimaldan kelib chiqqan holda, koreys san'atkori Kim Tae-Jong kuylagan qo'shiqdagi "Men gul emasman" iborasi to'g'ridan-to'g'ri talqin qilinsa, bu miqdor va usul maksimalining buzilishi bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri ma'no Grisning maksimiga zid bo'lganligi sababli uni majoziy ma'noda talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu empirik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, metaforik ma'noning talqini inson tilidagi ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida juda tez va avtomatik ravishda sodir bo'lishi mumkin. Aslida, biz muhokama qiladigan metaforik iboralarni tushunishda ham tadqiqot natijalari to'planib, metaforik ma'no tom ma'no kabi tez qayta ishlanishini ko'rsatdi (Blasko & Connine, 1993; Hoffman & Kemper, 1987; Ortony va boshqalar, 1978).

Metaforani tushunish bo'yicha analogik nuqtai nazar.

Birinchiidan, metafora bilan bog'liq atamalarni qisqacha bayon qilib o'tamiz. "A - B" shaklidagi metafora atribut metafora deb ataladi, bunda A maqsad, tenor va mavzu, B esa manba, vosita va asos deb ataladi. Oxir oqibat, metafora maqsad domen va manba sohasi o'rtasidagi o'xshashlik asosida ikkita sohani bog'laydi va bu metafora iboralar shu bog'lanish asosida tushuniladi. Metaforani tushunish bilan bog'liq yana bir atama bilan tanishsak: metafora mosligi va an'anaviylashtirishdir. Muvofiqlik manba domeni maqsadli domendagi tushunchalarni tushuntirish uchun qanchalik noyob va aniq ta'minlanishi bilan bog'liq. Yuqoridagi misolda "to'shak - bu fan" iborasining yaxshi metafora bo'lishining sababi shundaki, "fan"ning manba sohasi maqsadli sohani, "to'shak" ni o'ziga xos tarzda tushuntiradi va shu bilan birga uning xususiyatlarini aniq ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu mos metafora. Metaforaning shartlilashuvi deganda, bir xil metafora iboraning qayta-qayta qo'llanganda tanish bo'lib qolishi va pirovardida u majoziy ma'nodan tashqari tom ma'noga ham ega bo'lishi mumkin. Biz tez-tez ishlatadigan idiomatik iboralar orasida bu kabi misollar bo'lishi mumkin.

Ushbu sohaga chuqurroq kiradigan bo'lsak, metafora - bu voqelik ob'ektlarini, ularning nomlarini bilishning, badiiy obrazlarni yaratish va yangi ma'nolarni yaratishning asosiy usullaridan biridir. U yangi ma'nolarni yaratadi, demak mazmunli funktsiyani bajaradi. Metaforasiz, obrasziz, ta'sirchanliksiz va ifodasiz holda inson tili qanday bo'lar edi? Axir, Aristotel so'zlariga ko'ra, metafora shunchaki "bo'g'inni olijanob va ulug'vor qiladi". Uning ta'kidlashicha, yozuvchi uchun "metafora bilan mahoratli bo'lish juda muhimdir. Chunki, bu - yolg'iz o'zi boshqalardan ijaraga olinmaydi va bu qobiliyat iste'dodning belgisidir" (Aristotel 1998: 1099, 1101).

Aristotelga ko'ra metafora (Aristotelning Ritorikasi 1997: 154-182):

- 1) nutqni jonlantiradi;
- 2) narsalarga vizual va ravshanlik beradi;
- 3) bir ifodaning hissiy soyasini boshqasiga o'tkazish orqali hissiyotlarni boshqaradi;
- 4) tegishli nomi bo'lmagan narsalarga ifoda beradi;

Metafora turlari har xil funktsiyalarga ega bo'lishi mumkin. Ko'pincha funktsiya nomi metafora turining nomiga to'g'ri keladi. Bunda majoziy metafora amalga oshiriladi xarakterlovchi funktsiyasi va odatda gapda predikat o'rnini egallaydi. Nominal pozitsiyada majoziy metafora oldida avvalgi gapga ishora qiluvchi ko'rsatish olmoshi ko'pincha keladi: Andrey haqiqiy timsoh. Ushbu timsoh hammani yutishga tayyor ma'nosida. (Oparina 1988: 65).

Nominativ metafora funktsiyasi ob'ektlar sinflari nomlarini va shaxslarning ismlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, u haqiqiy dunyoning turli sohalaridagi narsalarga nomlar beradi: tog' tizmasi, darboğaz, pansies, marigolds. Ushbu funktsiya metaforaning barcha turlariga xosdir. (Oparina 1988: 65).

Kognitiv (xususiyat) metafora epistemologik funktsiyani bajaradi. U ob'ektiv bo'lmagan shaxslarni tavsiflovchi ikkinchi darajali predikatlar - sifatlar va fe'llarning maydonini tashkil qiladi, ularning xususiyatlari jismoniy ob'ektlar va kuzatilayotgan hodisalarning seziladigan atributlari bilan o'xshashligi bilan ajralib turadi (Arutyunova 1998: 362).

Kognitiv metafora muntazam ravishda "ko'rinmas olamlarning" so'z boyligini yaratish vazifasini bajaradi - bu insonning ma'naviy printsiplari, uning ichki dunyosi, xulq-atvor modellari, axloqiy fazilatlar, ong holatlari, hissiyotlar, harakatlaridan iboratdir. Insonning ichki xususiyatlari kabi jismoniy xususiyatlari bilan ham tavsiflanishi mumkin issiq va sovuq, yumshoq va qattiq, ochiq va yopiq, yengil va og'ir, qorong'i va yorug', chuqur va yuzaki, yorqin va kulrang va boshqalar. Quyidagi atributlar insonning turli jihatlariga ishora qiladi: yorqin (yengil) shaxsiyat, tinch kayfiyat, chuqur aql, yengil xarakter, past amal va hokazo. Ushbu turdagi metaforalar odatda o'xshashlikka asoslangan bo'lib, o'ziga xos "metafora maydonlarini" tashkil etadi (Arutyunova 1998: 362-363).

Shuningdek, metafora mavjud kontseptual allaqachon shakllangan tushunchalar asosida yangi tushunchalarni shakllantirish qobiliyatidan iborat funktsiyadir. Metafora ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va kundalik sohalarda ob'ektiv bo'lmagan shaxslarni belgilashda kontseptual rol o'ynaydi. O'zidan oldin og'zaki ifodasi bo'lmagan narsani aniqlab, kontseptual metafora tushunchalarni so'zlash maqsadiga xizmat qiladi. U boshqa, metafora bilan ifodalanmaydigan yangi kontseptsiyani yaratadi: eshik ramkasi, faoliyat sohasi, haqiqat donasi. (Oparina 1988: 65-66).

Tilshunos olimlar J.Lakoff va M.Jonson tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, metafora voqelikni aks ettirish va anglashning muhim vositasidir. Natijada, metafora o'xshashliklar va boshqalar bilan birga fikrlash vositalari ro'yxatiga kiritilishi mumkin. U kognitiv, nominativ, badiiy va mazmunli funktsiyalarni bajaradi.

Keling, analogik nuqtai nazardan, "to'shak - bu ilm" kabi metaforalarning inson miyasida qanday qayta ishlanishini tushunamiz. Analogiya - bu ob'ektlar orasidagi munosabatlarga asoslangan o'xshashliklarni topish va ulardan foydalanish qobiliyatimizdir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, metafora tushunishning analogiyaga asoslangan nazariyalari, maqsad sohasi va manba sohasidagi tushunchalarning xususiyatlari o'rtasidagi o'xshashliklarga asoslangan metaforik iboralarni tushunishni ilgari suradi. Misol uchun, analogiyaga asoslangan nazariyalardan biri bo'lgan strukturaviy xaritalash nazariyasini taklif qilgan Gentner (1983) fikriga ko'ra, u maqsad va manba sohasidagi ob'ektlarning xususiyatlari va har bir domendagi tushunchalar o'zaro bog'liqliklari haqidagi murakkab bilimlarni taqdim etishga asoslanadi. boshqa ob'ektlar bilan bu metaforik iboralar tushuniladi. Gentner va uning hamkasblari ushbu metafora tushunish jarayonini taqlid qiluvchi kompyuter simulyatsiyasi modeli deb ataladigan hisoblash ilmiy modelini ishlab chiqdilar va bu model asosan maqsad hamda manba sohaslarining turli xossalari, munosabatlarini sanab o'tadi, ular o'rtasidagi aloqani o'rnatadi, biz kelishuv darajasini maksimal darajada oshiradigan holatni topamiz. Bu erda esda tutish kerak bo'lgan narsa shundaki, har bir domendagi munosabatlar o'xshashlik jarayonida maqsad va manba domenlari o'rtasidagi mos xususiyatlardan ko'ra muhimroqdir. "To'shak - bu ilm" metaforasida to'shakning xususiyatlari va ilmning o'zi o'rtasida juda kam o'xshashlik mavjud, ammo to'shak odamlarga uxlashda yordam berganidek, ilm ham odamlarga yashashga yordam beradi, ya'ni duradgorlarga (kompaniyalarga) to'shak tayyorlashga yordam beradigan bilim kerak, ilm bilan shug'ullanish uchun olimlarga ham yetarlicha bilim kerak. Bu to'shak va fan va odamlar o'rtasidagi munosabatlar o'rtasidagi o'xshashlikni ko'rsatadi. Oxir-oqibat, metafora bu ikki soha o'rtasidagi munosabatlar o'xshashligi orqali o'xshash tarzda tushuniladi.

Gentner va Klement (1988) metafora mosligini aniqlashning eng muhim omili maqsad va manba sohalari o'rtasidagi o'xshashlik ekanligini ko'rsatadigan eksperimental dalillarni taqdim etdi. Tadqiqot sub'ektlaridan turli xil metaforalarning

mosligini baholashni so‘rash natijasida odamlar ikki soha o‘rtasidagi o‘xshashlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, metafora qanchalik mos keladi, deb o‘ylashdi. Bundan tashqari, boshqa bir tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilayotgan sub’ektlarning analogik fikrlash testi ballari va metaforalarni tushunish darajasi o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik bor, bu metaforalarni tushunish analogik fikrlash qobiliyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatadigan natija sifatida talqin qilinishi mumkin. (Trick & Katz, 1986).

“To‘shak – bu ilmdir” iborani metaforik tarzda talqin qilishning sababi yuqori darajadagi misol sifatida “to‘shak” ni tushunishning axborotni qayta ishlash jarayoni bilan bog‘liq. 30 yil oldin ushbu reklamani yaratgan odamlar metaforani tushunishning toifalarga bo‘lingan ko‘rinishini haqiqatan ham tushungan bo‘lishi mumkin. Chunki bu reklama iborasining birinchi qismi: “To‘shak mebel emas” deb kategoriyalashtirish nuqtai nazaridan, yotoqni mebel toifasiga emas, balki ilm-fan toifasiga qo‘yish metaforani tushunishning kalitidir.

Yuqorida ko‘rinib turganidek, metaforani tushunishning analogik ko‘rinishi maqsad va manba sohalarining har birida munosabatlar tuzilmasini yaratuvchi turli elementlar o‘rtasidagi taqqoslashni ta’kidlaydi, toifalash ko‘rinishi esa manba va maqsad domenida faollashtirilgan ko‘p qatlamli tushunchalarni ta’kidlaydi [Эшимова, Ш. (2020). Особенности метафоры тропинимического происхождения. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (75)), 81-86].

Bowdle va Gentner (2005) tadqiqot ishtirokchilaridan yangi metaforalarni (masalan, aql - oshxona) va an’anaviy metaforalarni (masalan, e’tiqodlar - langar) o‘xshatish (aql - oshxona) va metafora shaklida aralashtirishni so‘radi. Hamda, har bir jumlaning mosligini baholash so‘ralgan. O‘xshatish shaklidan foydalanish maqsadli domen va manba domen o‘rtasidagi taqqoslashni yanada kuchaytiradi, bu esa analogik talqinni tabiiyroq qilish ta’siriga ega. Baholash natijasida yangi metafora o‘xshatish tarzida berilganda moslik, an’anaviy metafora metafora shaklida berilganda moslik yuqori bo‘lgan. Shuning uchun, bu natija metafora martaba gipotezasini qo‘llab-quvvatlovchi sifatida qaralishi mumkin. Agar metafora martaba gipotezasi to‘g‘ri bo‘lsa, metafora ma’lumotlarini qayta ishlashni tushunish bo‘yicha ikkita nuqtai nazar katta murosaga erishgan deb aytish mumkin. Konventsiyalash darajasiga qarab, kamroq konventsiyalashning dastlabki bosqichlarida odamlar analogik nuqtai nazardan majoziy iboralarni tushunishga erishadilar va metaforalarda odatiylashtirish ma’lum darajada rivojlangan bo‘lsa, toifalash maqsadli sohadagi tushunchalarni yuqori darajaga bog‘laydi. -manba domenidagi darajali tushunchalar buni istiqbol orqali tushunishni anglatadi. Biroq, bu xulosaga kelishdan oldin ikkita narsani hisobga olish kerak.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu shoshilinch xulosa bo‘lishi mumkin. Yangi metaforalar nafaqat an’anaviy, balki kamroq mos keladi. Odamlarning yangi

metaforalarni o'xshatish tarzida qo'llashni ma'qul ko'rishining sababi metaforaviy ifodaning an'anaviyligi kam bo'lganligida emas, balki o'rinli emasligidadir. Darhaqiqat, bir tadqiqotda odamlarga yangi metafora va yaxshi tasdiqlangan metafora ko'rsatilganda, lekin ikkita metaforaning mosligi tenglashtirilganda, ma'lumotni qayta ishlashda u o'xshatish yoki metafora shaklida bo'ladimi, farq yo'q edi. (Glucksberg & Haught, 2006; Jones & Haught, 2006). Ayrim hollarda esa yangi metafora metafora shaklida taqdim etilganda, uni o'xshatish tarzida berilganidan ko'ra yaxshiroq anglab yetishi baholandi. Ushbu tadqiqot natijalari metafora ma'lumotlarini qayta ishlash an'anaviylashtirishga qarab sifat jihatidan farq qiladigan metafora martaba gipotezasiga ziddir.

Metafora martaba gipotezasi (은유의 경력 가설) - metafora ma'lumotlarini qayta ishlashni tushuntirish uchun o'xshashlik va turkumlashtirish istiqbollari integratsiyalashda yaxshi ish qilsa-da, uni kuchli qo'llab-quvvatlaydigan ko'plab empirik tadqiqotlar mavjud emas. Ushbu sohada aniq xulosaga kelish uchun ko'proq tadqiqot natijalari to'planishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Эшимова, Ш. К. (2022). PERSONIFIKATSIYA ORQALI OBRAZNING YARATILISHI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(4).]
2. Chwi Won-il "Metafora – ma'lumotlarni qayta ishlashning kognitiv fani" 2023:3
3. Eshimova, S. K. (2022). KOREYS BADIY ADABIYOTIDA PERSONIFIKATSIYANING IFODALANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 356-364.
4. Grice, 1989
5. Aristotel 1998: 1099, 1101
6. Aristotelning Ritorikasi 1997: 154-182
7. Oparina 1988: 65
8. Arutyunova 1998: 362
9. Trick & Katz, 1986
10. Эшимова, Ш. (2020). Особенности метафоры тропинимического происхождения. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (75)), 81-86
11. Glucksberg & Haught, 2006; Jones & Haught, 2006

DIDAKTIK O'YIN QOIDALARI

Ahmadjonova Ma'muraxon Ne'matovna,

Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi biologiya fani o'qituvchisi,

Abdurahmonova Rohilaxon Solijonovna

Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi kimyo fani o'qituvchisi,

Rahmonova Ziyodaxon Shakirovna

Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi rus tili fani o'qituvchisi,

Saliyeva Maxmudaxon Adxamovna

Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi,

Yunusova Maloxatxon Ergashevna

Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi rus tili fani o'qituvchisi

Annontatsiya: Ushbu maqolada didaktik o'yin, uning maqsadi, vazifalari va natijasi haqida tushunchalar berilgan. Dars mashg'ulotlarining sifatini oshirishda didaktik o'yinlarning ham o'rni alohidadir. Ta'limning samaradorligini oshirish jamiyatimizning kelajagini mustahkamlashdir.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yin, ta'lim, pedagogika, interfaol

Pedagogik texnologiyalarda didaktik o'yinlar texnologiyalari bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular bolalar shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o'yin - ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishishga, ya'ni o'tilgan o'quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan, doiraviy misollar o'yinida ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi. Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadining bir qismini tashkil qiladi. Har bir didaktik o'yinning ham, har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyati, binobarin o'yinning ta'limiy, tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi.

O'yin topshirig'i – o'qituvchining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olibligini aniqlashdan iborat. Har bir didaktik o'yin o'z navbatida quyidagi komponentlardan tuziladi: o'yin maqsadi, qoidalari, jihozi, mazmuni, natijasi.

1. O'yin qoidalari. O'yinni olib borish va unga qatnashish tarkibini aniqlab

beradi. Qoidalar o'yin maqsadiga mos holda o'quvchilar faoliyatini tartibga solish uchun kerak bo'ladi.

2. O'yin mazmuni o'quvchilarning bajarishi kerak bo'lgan harakatlar bilan aniqlanadi, adabiyot darsida bu harakatlar ko'proq misol va tajriba masalalar yechishdan iborat bo'ladi. O'yin jihozi o'yinni o'tkazish uchun kerak bo'lgan predmet, modellar real va shartli predmetlar, kartochka va ko'rgazmalardan iborat.

O'yin natijasi. Qo'yilgan vazifaning bajarilishi bilan aniqlanadi. Natija o'quvchilarni qoniqtirishi kerak. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda ijtimoiy normalarga xos ongli intizomning vujudga kelishi, motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, bilim, ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi, ko'zlangan natijaning kafolatlanganligi va samaradorlikning yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Ushbu texnologiyalar jumlasiga didaktik-o'yin, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, kommunikativ ta'lim, o'quv materiallarining (jadval va belgili) modellari texnologiyalari kiradi.

Demak, adabiy ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyani qo'llash ma'lum qolip asosida fikrlashni emas, balki umumiy yechimga xilma-xilli ijodiy izlanishlar orqali kelishini ta'qozo etadi. Asosiy maqsadga erishish faqat tushuntirish va aniqlash jarayoni bilan chegaralanmaydi. Masalan, Adabiyot darslari jarayonida o'quvchilarning ma'lum bir vaqt ichida o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni o'zlashtirishi o'sha bilimlarni takrorlay olishi va amaliyotda qo'llashi bilan belgilanadi. Buning uchun o'qituvchi dars jarayonida qabul qilingan standart matnlarga ijodiy yondashishi va ta'lim mazmuni va maqsadiga mos usul hamda vositalardan unumli foydalanishi lozim bo'ladi.

Didaktik o'yinlardan dars jarayonida foydalanish quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- birinchidan, o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- ikkinchidan, o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- uchinchidan, shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkoniyat beriladi;
- to'rtinchidan, hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;

- rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Ta'lim tizimida didaktik o'yinlar o'rni juda katta. Chunki pedagog uchun professional mahorat bu uning faol faoliyatini osonlashtiradigan didaktik o'yinlarni yaratish va o'quvchilarni fanga qiziqtirish, bilim darajasini oshirishi bilan ham ahamiyatlidir. Kichik tadqiqotlarimizdan shuni aniqladikki, dars mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini ikki baravar unumli tashkil qilish va o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish mumkin. Jahon tajribalaridan ham anglashiladiki, o'rinli foydalanilgan didaktik o'yinlar orqali o'quvchi berilayotgan materiallarni chuqirroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatiga, ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqining yanada ortishiga, olingan bilimlarning xotirasida uzoq muddat saqlanishi va amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: 2017-yil.
2. Mirziyoyev Sh. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi Qarori. T.:2017-yil.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 171b.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2009. –41

II. Normativ huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni// “Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida.–T.:Sharq, 1997. – B.20-29.
2. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// “Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida.– T.:Sharq,1997. –B.31

III. Maxsus adabiyotlar:

5. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52b.
6. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2010. – 149b.
7. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari (Xalq ta'limi xodimlari uchun qo'll.). – T.: O'qituvchi, 2004. – 101b.
8. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariyava amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205b.

ТА'ЛИМ SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING MAZMUNI VA MUAMMOLARI

*Ahmadjonova Ma'muraxon Ne'matovna,
Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi biologiya fani o'qituvchisi,
Abdurahmonova Rohilaxon Solijonovna
Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi kimyo fani o'qituvchisi,
Rahmonova Ziyodaxon Shakirovna
Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi rus tili fani o'qituvchisi,
Saliyeva Maxmudaxon Adxamovna
Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi,
Yunusova Maloxatxon Ergashevna
Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi rus tili fani o'qituvchisi.*

Annontatsiya: Bugungi hayotimizda ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ta'limning samaradorligini oshirish jamiyatimizning kelajagini belgilashda muhimdir.

Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilinishi, yangi ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. O'quvchilarni bugungi kun talabi asosida tarbiyalash eng muhim vazifalardan biridir. Bunday murakkab va muhim jarayonni amalga oshirishda ustoz-murabbiylar o'rni beqiyosdir. Aynan ta'lim sohasida iqtisodiyotimizning barcha sohalari uchun mutaxassislar tayyorlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta'lim sohasi davlat siyosatining ustivor sohasiga aylandi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatda demokratik muhit bo'lmasa bola erkin, mustaqil fikrlay olmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga munosabatlarda ezgu insonparvar yondashuvga amal qilish lozim. Bular:

- o'qituvchi va o'quvchi huquqida tenglik darajasi;
- bolaning erkin tanlash huquqi;
- xato qilish huquqi;
- shaxsiy nuqtai nazar huquqi;

O'quvchilarni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish bir kunda yoki bir soatlik dars davomida amalga oshirilmasdan, balki yillar davomida bosqichma-bosqich turli omillar ta'sirida amalga oshiriladigan jarayondir.

O'quvchilarini mustaqil fikrlashga, muammolarni mustaqil ravishda hal qila bilishga o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Modomiki, shunday ekan, ta'lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, toki o'quvchilar bilim olish bilan birgalikda, ta'lim jarayonining obyekti bo'lib qolmasdan, balki o'qituvchining teng hamkoriga aylansin.

Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday katta e'tibor ta'lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi. Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardir. Hozirgi paytda pedagogika

fanida pedagogik texnologiyalar, ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi iboralari tez-tez tilga olinmoqda. Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda «yangi pedagogik texnologiya», «ilg'or pedagogik texnologiya», «zamonaviy ta'lim texnologiyasi» ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga tushirilmagan, entsiklopediyalarda izohlanganicha yo'q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.

Pedagogik texnologiya nima?

Bu haqida ko'pgina mualliflar o'z ta'riflarini berganlar. Bular: BMT ning nufuzli idoralaridan biri bo'lgan YUNESKO ta'rificha:

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini aniqlash, yaratish va qo'llash tizimidir.

Pedagogik texnologiya — o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir (V.P. Bepalko).

Pedagogik texnologiyaga professor N.Saidahmedov: «Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxsiy sifatlarini shakllantirish jarayoni»-degan ta'rifni beradi.

Ta'lim texnologiyasi – oldindan belgilangan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan, ta'lim jarayonida inson va texnika resurslaridan foydalanishning loyihalashtirilgan muayyan tizimi.

Mutafakkirlar merosini o'rganish natijasida insonning shakllanishida ilmning ahamiyati katta ekanligining guvohi bo'ldik. Ularda bilim shaxs taraqqiyotining asosiy manbai ekanligi asoslab berilgan. Shuning uchun ham ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustozga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri edi. Chunki ilm bor joyda rivojlanish, taraqqiyot bo'ladi, yangiliklarni joriy etishga keng yo'l ochiladi.

Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o'tkir fikrlaydigan kishilar to'g'risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r iste'molga ega; yomon ishlardan o'zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar» (Forobiy. «Fozil odamlar shahri». – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi. 1993. 182-b). Uning fikricha, «Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalarida iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar» (Forobiy. «Fozil odamlar shahri». – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi. 1993. 182-b).

Yusuf Xos Hojib bolaga bilim berib, hunar o'rgatishni ularning yoshligidan

boshlash kerakligini ta'kidlaydi (O'rta Osiyo pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: 1996. 159-b.).

O'quvchilarga kasb-hunar va tadbirkorlikni yoshligidan boshlab o'rgatish masalasi Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ham ko'tarilgan. "Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kimga naf etkurmas. Bilursanki, xori mug'ilonning (tikanli buta) tani bordur ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug'ilon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur" (Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Istiqlol. 1994. 26- b.).

Xususan pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi" deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi.

Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Ayniqsa shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish ancha samaradorligi amalda isbotlanmoqda.

Dastlab "**texnologiya**" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - "**texnos**" (techne) - **san'at, mahorat, hunar** va "**logos**" (logos) - **fan** so'zlaridan tashkil topib "**hunar fani**" ma'nosini anglatadi. Biroq, bu ifoda ham, zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon, har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda, operatsiyalarning muayyan ketma-ketlikda bajarilishni ko'zda tutadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga o'giradigan bo'lsak, ya'ni:

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning ta'lim-tarbiya vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonidir.

Pedagogik texnologiyalarda didaktik o'yinlar texnologiyalari bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular bolalar shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yo'nalishlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari **empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv** pedagogik texnologiyalardan iborat.

O'quv- tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tinglovchilardan ko'p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi. Har qanday pedagogik texnologiyalarning o'quv- tarbiya jarayonida qo'lanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o'qitayotganligi va pedagog kimni o'qitayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini—oshirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammoarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi".
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.-180 b.
3. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma.
4. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Umumiy biologiyani o'qitish metodikasi. (10-sinf). –T.: "Sharq". 2004. -96 b.
5. G'ofurov A.T. va boshqalar. Biologiyani o'qitishning umumiy metodikasi. (O'quv-metodik qo'llanma). - T.: TDPU. 2005.
6. G'ofurov A.T., Fayzullaev S.S., Xolmatov X.X. Genetikadan masala va mashqlar. –T.: «O'qituvchi». 1991.
7. Tolipova J. va boshqalar. Biologiya xonasi. –T.: "Bilim" nashriyoti, 2003.
8. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.- T.: Fan,2005. -205 b.
9. Niyozov Q. O'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni hosil bo'lish omillari va ularnibartaraf etish chora-tadbirlari.-Namangan. 2015 yil.

Internet resurslari

1. <http://ziyonet.uz/>
2. <http://pedagog.uz/>
3. <http://uzedu.uz/>

ДИДАКТИК О‘YINLAR TA‘LIM BERISH VOSITASI SIFATIDA

Ahmadjonova Ma‘muraxon Ne‘matovna,

Farg‘ona shahar kasb-hunar maktabi biologiya fani o‘qituvchisi,

Abdurahmonova Rohilaxon Solijonovna

Farg‘ona shahar kasb-hunar maktabi kimyo fani o‘qituvchisi,

Rahmonova Ziyodaxon Shakirovna

Farg‘ona shahar kasb-hunar maktabi rus tili fani o‘qituvchisi,

Saliyeva Maxmudaxon Adxamovna

Farg‘ona shahar kasb-hunar maktabi ingliz tili fani o‘qituvchisi,

Yunusova Maloxatxon Ergashevna

Farg‘ona shahar kasb-hunar maktabi rus tili fani o‘qituvchisi.

Annontatsiya: Maqolada didaktik tushunchalar, ularning asosiy turlari haqida tushunchalar yoritilgan. Bugungi hayotimizda ta‘lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ta‘limning samaradorligini oshirish jamiyatimizning kelajagini belgilashda muhimdir.

Kalit so‘zlar: Didaktika, interfaol, intellektual

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy), harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ma‘lumki, o‘quvchilarning mustaqil keng va puxta bilim olishlarida syujetli, rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiya, o‘yin mashqlari kabi didaktik o‘yinlar o‘zining ta‘lim-tarbiya beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, o‘quv materiallarini takrorlovchi, bilimlarni nazorat qiluvchi o‘yinlar sifatida ifoda etilishi bilan ahamiyatlidir. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash, mustaqil bilim egallash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ularning o‘zlarida bor bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarini yangi vaziyatda qo‘llash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishida didaktik o‘yinlarning o‘rni alohida ajralib turadi.

O‘quvchilarning ijodiy fikrlash, mustaqil bilim egallash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ularning o‘zlarida bor bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarini yangi vaziyatda qo‘llash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishida didaktik o‘yinlarning o‘rni alohida ajralib turadi. Bundaylarning bir-biridan farqlanishi va o‘ziga xos tavsifga ega ekanligiga e‘tibor beriladi. Ijodiy o‘yinlar-talabalarning ijodiy izlanish, mantiqiy fikr yuritishini rivojlantirish va qo‘shimcha bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan o‘yinlardir. Bu o‘yinlar ta‘sirida o‘quvchi ijodiy izlanib, yangiliklarni kashf etadi va uni hayotida qo‘llaydi. Shuni

alohida ta'kidlash joizki, o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida mustaqil ish, dars jarayonida mustaqil o'qish va o'rganish, yangi materialni tushuntirish va mustahkamlash, turli ijtimoiy foydali faoliyatlar, topshiriq va mashqlarni bajarish, fan bo'yicha o'tilgan materiallarni takrorlash, test-sinov topshiriqlarini bajarish muhim. Shuningdek, savol-javob, bahs-munozara yuritish, sayr-sayohatlar uyushtirish, shaxsiy taassurotlarini himoya qilish, mustaqil o'qishning sahna va kino ko'rinishini tashkil etish, kitob bilan mustaqil ishlash, soha bo'yicha amaliy ishlarni mustaqil bajarish, dastur yo'nalishida badiiy adabiyotlarni tahlil etish asosida mustaqil ishlashning ahamiyati kattadir. Bu ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish har qanday soha faoliyatida ijobiy o'zgarishlarni sodir etadi.

Eng muhimi o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda texnologik yondoshuv o'quv jarayonini yanada faollashtiradi, o'quv materiallarining o'zlashtirishida yuqori darajaga erishiladi.

Ishchanlik o'yin darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Ro'lli o'yin darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars–dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi– tegishli o'quv fani bo'yicha darsavzusiga doir kompyuter materiallari(multimediya,virtual o'quv kursi va shu kabilar)asosida o'tiladigan dars.

Kimoshdi savdosi darsi–o'quv fani ayrim bo'limi bo'yicha bilimlarni har bir o'quvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi.

Yarmarka darsi–dars mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirish o'quvchilarning o'zaro muloqat asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan dars.

O' yin darsi – dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarning o'zlashtirishlarini tashkil etish darsi.

Sud darsi–o'quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tashkillashtirish darsi.

Konsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Tergovchi bilimdonlar olib boradigan darsi – dars mavzusini oldindan puxta o'rgangan o'quvchilar yordamida qiziqarli savol – javoblar, tahlillar asosida isbotlab,tushuntirish mashqlari bo'lib,bunda o'quvchilar dars mavzusini

o'zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadilar.

Integral (integratsiyalangan) dars – bir nechta fanlarga doir integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan dars bo'lib, o'quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib ta'lim jarayonidagi faolliklarini taminlaydi.

Bunday darslar o'quvchilarga fanlar aro bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda odam tuzilishining ilmiy asoslarini to'liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ijodiy tafakkurlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: 2017-yil.
2. Mirziyoyev Sh. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi Qarori. T.:2017-yil.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 171b.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2009. –41

II. Normativ huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni// “Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida.–T.:Sharq, 1997. – B.20-29.

III. Maxsus adabiyotlar:

5. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52b.
6. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2010. – 149b.
7. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari (Xalq ta'limi xodimlari uchun qo'll.). – T.: O'qituvchi, 2004. – 101b.
8. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariyava amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205b.

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING ISTIQBOLLARI

Toshbotirov Javlonbek G'ulomjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Akademiyasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali muallif huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid normativ huquqiy hujjatlarni, mamlakatimizda so'nggi yillarda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishga doir huquqiy hujjatlarni, profilaktika inspektorlari oldida turgan ulkan ma'sulyatli vazifalarni yoritib o'tib, profilaktika xizmatini yanada xalqchil tuzilmaga aylantirish yuzasidan o'z fikr-mulohazalari tavsiyalari bilan o'rtoqlashib o'tgan.

Kalit so'zlar: Huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, professional tuzilma, platforma, kriminogen vaziyat, kompleks mexanizm.

АННОТАЦИЯ

Посредством данной статьи авторы освещают нормативно-правовые документы, связанные с профилактикой правонарушений, нормативно-правовые документы, касающиеся борьбы с преступностью и организации профилактики правонарушений в нашей стране за последние годы, огромные ответственные задачи, стоящие перед инспекторами профилактики, и о превращении службы профилактики в более популярную структуру, которые поделились своим мнением и рекомендациями.

Ключевые слова: Преступность, профилактика преступлений, профессиональная структура, платформа, криминогенная ситуация, комплексный механизм.

ANOTATION

This article, the authors shed light on the normative legal documents related to crime prevention, the legal documents related to the fight against crime and the organization of crime prevention in our country in recent years, the huge responsible tasks before the prevention inspectors, and about turning the prevention service into a more popular structure. who shared their opinions and recommendations.

Keywords: Crime, Prevention of crimes, professional structure, platform, criminogenic situation, complex mechanism.

Jahonda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirish, profilaktik ishlarni muvofiqlashtirish, huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish dolzarb hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirishga, sud hokimiyatining fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga zamin yaratdi. Shu bilan birga, mamlakatni rivojlantirishning zamonaviy talablari va strategik ustuvor vazifalari sud-huquq tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi. Shuningdek, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish tizimini takomillashtirish istiqbollari tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan davr mobaynida respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu boradagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yaxlit normativ-huquqiy baza shakllandi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining samarali faoliyati natijasida mamlakatda huquq-tartibot mustahkamlanib, kriminogen vaziyat sezilarli darajada yaxshilandi. Bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini tashkil etish uslublarini tubdan o'zgartirish, qonun buzilishi holatlarini fosh etish va choralar ko'rish emas, balki mazkur holatlarning barvaqt oldini olish va profilaktikasini ta'minlashni, ushbu idoralarning eng asosiy vazifasiga aylantirish, huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlarining samarali tizimini joriy etish, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda profilaktik chora-tadbirlarini amalga oshirishda profilaktika inspektorlarining roli kengayib, ular mamuriy hududda mahalla raisi va uning o'rinbosarlari bilan birgalikda, har bir ko'cha, har bir xonadonga birma-bir kirib, fuqarolarning ijtimoiy ahvolini o'rganish, taklif va tavsiyalarini berishlari muhim masalalardan biri hisoblanishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi 6196-sonli Farmoni qabul qilingan bo'lib, ushbu farmonda ichki ishlar organlari tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan normalar o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin.

¹ Sh.M.Mirziyoevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 21.10. 2016 yil.

Shuningdek, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi, bunda:-mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanishi; mahalla huquq-tartibot maskani negizida hududdagi ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari hamda Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati tashkil etilishi;-mahalla huquq-tartibot maskani tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklanishi belgilab qo'yildi. Ta'kidlash joizki, yurtimizda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish, jamoatchilik bilan aloqalarni yana-da mustahkamlash borasidagi ishlar yangi bosqichga ko'tarildi.

Profilaktika inspektorlari ²faoliyati tizimini tubdan isloh qilishning huquqiy asoslari takomillashtirildi, tizim xodimlariga yangi vazifalar yuklatildi va xizmat olib borish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilmoqda²Bugungi kunda profilaktika inspektori zimmasiga yuklatilgan barcha funktsiyalarni samarali bajarish har tomonlama hududda kriminogen vaziyatni o'rganishni, tahlil qilib borishni talab qiladi. Shunday ekan, o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda eng avvalo mahallada yashovchi, o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan jismoniy shaxslarning turmush tarzini, mavjud muammolarni o'rganishi zarur. Ushbu toifadagi shaxslarning muammolarini Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi tegishli idoralar bilan hamkorlikda bartaraf etish hamda huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak.

Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev joriy yilning 12 fevral kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida mahallalarda va oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarning oldini olish bo'yicha tizim yo'lga qo'yilmaganligi, oqibatda ayrim mahallalarda notinch oilalar, huquqbuzarliklar ko'payganligi, shuningdek, xotin-qizlar va voyaga etmaganlar orasida o'z joniga suiqasd qilish holatlari uchrayotgani juda achinarli ekanligiga e'tibor qaratdi. Ayni paytda, "Oila –muqaddas" degan azaliy va ezgu g'oya qadrsizlanib, ming yillik milliy qadriyatlarimiz zavol topar ekan, bu kabi og'riqli holatlarni kamaytirib

² Yangi O'zbekiston gazetasi elektron Manbaa: <https://yuz.uz/uz/news/jamoat-xavfsizligini-taminlashda-profilaktika-inspektorining-rol-i-qanday>.

bo'lmasligini, buning uchun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi kerakligi, chunki faollar, ko'pni ko'rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishga qodir ekanligiga to'xtalib o'tdi. Mahallada sodir etilgan har bir jinoyat favqulodda holat deb hisoblanishi kerakligiga urg'u berdi. Yig'ilishda mahallalarning o'zida ham qator muammolar borligi qayd etilib, ularni qo'llab-quvvatlash, mahalla idoralarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalariga ham e'tibor qaratildi.

SHuningdek, davlatimiz Rahbari mahalla raisining vakolat muddati uch yildan besh yilga o'zgartirilishi, uning uch nafar o'rinbosari lavozimi joriy etilishi, profilaktika inspektori endilikda mahalla raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari bo'lib faoliyat yuritishi, u ham 5 yil muddatga tayinlanishi, inspektorni boshqa xizmatga o'tkazish yoki rotatsiya qilish faqatgina O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri o'rinbosari vakolatiga berilishi yuzasidan so'z yuritdi. Haqiqatdan ham mahalla raisi yoki profilaktika inspektori o'ziga birlashtirilgan hududda uzoq muddat ishlamas ekan, shu mahallaning aholisi, ularning muammolari, notinch oilalar, huquqbuzarliklar keltirib chiqaruvchi omillarni to'liq o'rganib ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'ra olmaydi. Ayni paytda, mahalla raisining uch nafar o'rinbosari lavozimi joriy etilishi mahalla raisiga juda katta ko'mak bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu vaqtga qadar mahallalarda jamoatchilik asosida tashkil etilgan komissiyalarning oilalarda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishdagi o'zni sezilmayotganligi hech kimga sir emas edi.

Muhtaram Prezidentimiz aynan shu masalaga to'xtalar ekan, "mahallalardagi turli yo'nalishlar bo'yicha tashkil etilgan, biroq kutilgan samarani bermay kelayotgan 12 ta jamoatchilik komissiya va tuzilmalari ham optimallashtiriladi" – deya ta'kidladi. Shuningdek yig'ilishda fuqarolar yig'inlarining faoliyatiga xos bo'lmagan 50 dan ortiq vazifa bekor qilinishi, profilaktika inspektorlariga yuklatilgan ortiqcha topshiriqlar ham keskin qisqartirilishi belgilandi. Shu vaqtga qadar profilaktika inspektorlari o'z vakolatlariga kirmaydigan vazifalarga jalb qilinishi, ular uchun yig'ilishbozlik va yo'riqnomalarning ko'payishi natijasida xizmat hududidagi oilalarni o'rganish, huquqbuzarliklar keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish masalalarida sustkashliklarning yo'l qo'yilishiga sabab bo'lmoqda.

Mahalla va oila masalalari vazirligini tashkil etish haqida taklif mutasaddi tashkilotlarning "bir yoqadan bosh chiqarib", yagona maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, joylarda muammolarni hal qilishning yaxlit va ta'sirchan vertikal tizim sifatida "Obod va xavfsiz mahalla"³ tamoyiliga asoslangan yangi tizimni joriy etish, ushbu noyob tuzilmaga hurmat

³ O'zbekiston Respublikasi IIVning rasmiy veb sayti elektron Manbaa: <https://iiv.uz/news/profilaktika-inspektorlarining-faoliyati-bilan--bogliq-ezgu-tashabbuslar>

tuyg'usini shakllantiradigan sahna asarlari va badiiy filmlar yaratish yuzasidan bergan ko'rsatmalari davlatimiz rahbarining chuqur va puxta o'ylab qabul qilgan qaroridir. Profilaktika inspektorlari hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 13 ta moddasiga asosan o'z vakolati doirasida qaror qabul qilsa, videosektor yig'ilishida ushbu raqamni 30 tagacha oshirish masalasi ilgari surildi. Mana shunday ustuvor vazifalardan hozirgi kunda profilaktika inspektorlariga qo'yilayotgan asosiy talablardan kelib chiqqan holda biz eng avvalo profilaktika inspektorlarini yanda xalqchil ish faoliyatini olib borayotganligini beg'araz xolisona baholash maqsadida, Respublikamiz uchun yagona platforma baza yaratilishini bu platforma orqali har bir fuqoro o'zi istiqomat qiluvchi hududiy profilaktika inspektorining ish faoliyatida, xalq bilan uzluksiz va sifatli ishlayotganligini holisona baholanishini ochiq dasturda kuzatib borishlari mumkin bo'ladi.

Bu platformada natijalariga ko'ra yuqori ko'rsatkichga erishgan profilaktika inspektorlarini mukofotlash uchun taqdim etish, mazkur platformada salbiy natija ko'rsatgan hodimlarni ish faoliyatini tekshirib, agarda haqiqatda intizombuzarlik holatlari aniqlanadigan bo'lsa ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash amalyotini joriy etishimiz maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. O'ylashimizcha bu platforma profilaktika inspektorlarini yanada xalqchil ishlari uchun turtiki bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 21.10. 2016 yil.
2. Yangi O'zbekiston gazetasi elektron Manbaa: <https://yuz.uz/uz/news/jamoat-xavfsizligini-taminlashda-profilaktika-inspektorining-rol-i-qanday>.
3. O'zbekiston Respublikasi IIVning rasmiy veb sayti elektron Manbaa: <https://iiv.uz/news/profilaktika-inspektorlarining-faoliyati-bilan--bogliq-ezgu-tashabbuslar>- 30 O'zbekiston Respublikasi IIVning rasmiy veb sayti elektron Manbaa: <https://iiv.uz/news/profilaktika-inspektorlarining-faoliyati-bilan--bogliq-ezgu-tashabbuslar>.
4. O'zbekiston Respublikasining Yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi 2023-yil
5. Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonun 2016-yil 16-sentyabr
6. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonun 2014-yil 14may
7. 2021-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
8. 2022-yil 18-may kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi to'g'risida"gi qonuni

О‘ЗBEKISTONDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI SOHASI VA UNDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR

Toshbotirov Javlonbek G‘ulomjon o‘gli
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR
VAZIRLIGI AKADEMIYASI KURSANTI

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi, uning nima ekanligi, huquqiy asosi, huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari, uni amalga oshiruvchi organlar, bu sohadagi islohotlar va sohani rivojlantirishga oid takliflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqiy asos, profilaktika turlari, amalga oshiruvchi organlar, islohotlar, profilaktika inspektori, takliflar.

Har bir davlat bor ekanki, o‘z huquq tizimi va qonunlari mavjud. Barcha fuqarolar belgilangan qonunlarga birdek amal qilishi va boshqalarning huquqlariga putur yetkazmasligi lozim. Bu davlatning rivoji va tinchligi uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Qonundan chetga chiqish esa huquqbuzarlikni keltirib chiqaradi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar sodir etilgan huquqbuzarlikka qarshi kurashishadi: aybdorni topishadi, so‘roq qilishadi, sabablarni aniqlashadi va hokazo. Buning uchun ko‘p mablag‘ va ishchi kuchi kerak bo‘ladi. Shu sabab huquqbuzarlik sodir bo‘lishidan avval uni oldini olgan ma‘qul. Bunday holatda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi bizga yordamga keladi.

Xo‘sh huquqbuzarliklar profilaktikasi o‘zi nima degani? Bunda profilaktika so‘ziga e‘tibor berish lozim. **Profilaktika**¹ so‘zi lotincha so‘z bo‘lib ma‘nosi “oldini oluvchi”, “saqlovchi” degan ma‘nolarni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, huquqbuzarliklar profilaktikasi deganda huquqbuzarliklarni oldini olish tushuniladi. Yanada aniq huquqiy javob “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida keltirib o‘tilgan: “Huquqbuzarliklar profilaktikasi² — huquqtartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi”.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asosi haqida. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng huquqbuzarliklar sohasini amalga oshirishga oid, yanada takomillashtirishga oid juda ko‘plab qonun va qarorlar qabul qilingan. Ammo, 2014-yil 14-mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun bu sohada haqiqiy tub burilish bo‘lib xizmat qildi. Chunki shu sanaga qadar huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasini tartibga soluvchi yagona rahbariy qonun

¹[https://uz.wikipedia.org/wiki/Profilaktika#:~:text=Profilaktika%20\(yun.,rivojlanishini%20yaxshilashga%20qaratilgan%20chora%2Dtadbirlar.](https://uz.wikipedia.org/wiki/Profilaktika#:~:text=Profilaktika%20(yun.,rivojlanishini%20yaxshilashga%20qaratilgan%20chora%2Dtadbirlar.)

² O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risi” da qonuni 2014-yil 14 may.
<https://lex.uz/acts/-2387357>

hujjati yo‘q edi. Bu qonunda ilk bora huquqbuzarliklar profilaktikasi nima ekanligi, uning prinsiplari, turlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar haqida batafsil ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Huquqbuzarliklar profilaktikasining qanday turlari mavjud? “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunda huquqbuzarliklar profilaktikasining quyidagi turlari ko‘rsatib o‘tilgan: - huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi; - huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi; - huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi; - huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shartsharoitlarini aniqlash, bartaraf etish bo‘yicha faoliyati huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi hisoblanadi. Bunda kam mablag‘ va ishchi kuchini jalb etgan holda ko‘proq natijaga erishish ko‘zda tutiladi. Masalan, televideniya, radio, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoki davra suhbatlari va hokazolar orqali profilaktik ogohlantiruvlar e‘lon qilish. Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shartsharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta‘sir ko‘rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasidir.

Ayrim toifadagi yoki mavsumiy huquqbuzarliklarga qarshi aynan maxsus profilaktika qo‘llaniladi. Masalan, giyohvand moddalarga qarshi “Qoradori” maxsus profilaktik tadbiri, voyaga yetmaganlar toifasi uchun profilaktik tadbirlar va hokazo. Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishga doir faoliyati huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasidir. Huquqbuzarliklar profilaktikasining bu turi shaxslar bilan individual tarzda ishlashni nazarda tutadi. Bunda shaxsning xulq-atvori, psixikasi va boshqa jihatlari hisobga olingan holda quyidagi chora-tadbirlar qo‘llanilishi mumkin: profilaktik suhbat, rasmiy ogohlantirish, majburiy davolanishga yuborish va hokazo.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo‘llashga doir faoliyati huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasidir. Huquqbuzarliklarprofilaktikasining bu turi ma‘lum bir toifadagi shaxslarning muayyan huquqbuzarliklar oqibatida jabrlanuvchi bo‘lib qolishini oldini olishni nazarda tutadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasini qaysi organlar amalga oshiradi? Huquqbuzarliklar profilaktikasini quyidagi organlar amalga oshiradi: ³- ichki ishlar organlari; - prokuratura organlari; - Davlat xavfsizlik xizmati organlari; - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlari; - O‘zbekiston Respublikasi

³. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risi”da qonuni 2014-yil 14 may.

<https://lex.uz/acts/-2387357>

Миллий гвардийasi organlari; - O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi; - adliya organlari; - davlat bojxona xizmati organlari; - davlat soliq xizmati organlari; - mehnat organlari; - ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari; - davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari; - O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi organlari va boshqalar. Yuqorida sanab o‘tilgan davlat organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishdagi vazifalari bir-biridan farq qilishi mumkin, ammo barchasining zamirida bir maqsad ya’ni huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadi mujassam. Fikrimizcha, huquqbuzarliklarni oldini olishga nafaqat sanab o‘tilgan organlar, balki xususiy korxonalar, tashkilot, muassasalar va fuqarolar ham birdek ma’suldirlar.

Bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar. So‘nggi yillarda bu sohaga qaratilayotgan e’tibor juda ham katta hisoblanib, davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Chunki, yildan-yilga huquqbuzarliklar soni ortib borayotgan edi. Bu holatda sohaga yanada bilimli, malakali va fidoiy kadrlar zarurligi ko‘rinib qoldi. Shu maqsadda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bilamizki, sohaning asosiy ishchi kuchi profilaktika inspektorlari hisoblanadi. Ularning samarali ishlashi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda, oylik maoshlari oshirilmoqda, xizmat uylari berilmoqda. Buni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham quyidagi gaplari orqali ta’kidlab o‘tgan: “Profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish, sodir etilgan har bir jinoyatni tahlil qilish, jinoyatchilikni professional darajada aniqlash lozim. Profilaktika inspektorlari xizmat uylari, imtiyozli kreditlar asosida mashinalar bilan ta’minlanayotgani ular mahallaning har bir xonadoni bilan samarali ishlashida muhim ahamiyat kasb etmoqda”.

Sohani yuridik kadrlar bilan taminlash uchun Toshkent davlat yuridik universiteti Ixtisoslashtirilgan filiali tashkil etildi. Bu ta’lim maskani orqali sohaga yuridik kadrlarni bosqichma-bosqich yetkazib berish ko‘zda tutilgan. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasini yanada rivojlantirish yo‘llari. Huquqbuzarliklar profilaktikasini sohasini yanada takomillashtirishga oid quyidagi shaxsiy fikrlarni bayon etsak: Birinchidan, sohada yuridik kadrlar juda ham oz miqdorda. Shu sabab yuqoridagidek huquqbuzarliklar profilaktikasiga yuridik kadrlarni tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini maqsadli ko‘paytirish lozim. Ikkinchidan, profilaktika inspektorining ish yuklamasi va ish soatini qayta ko‘rib chiqish lozim. Bunda profilaktika inspektorlariga har qanday tegishli bo‘lmagan mansabdor shaxs yoki davlat organi tomonidan o‘z xizmat faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan vazifalar berilishini qat’iyan taqiqlash shart. Ish soati ko‘pligidan esa oilasi va boshqa ishlarga vaqt topa olmaydi. Bu haqida Shavkat Mirziyoyevning quyidagi jumllarini keltirib o‘tish o‘rinli: “Qaysi hokim profilaktika inspektorini qabul qilib, gaplashdi? Uning bir kunlik ishini, oilaviy sharoitini o‘rgandi? Hamma “kattakon” uchastka noziriga buyruq beradi. U hamma narsa bilan shug‘ullanyapti, ko‘p vaqt yo‘qotyapti, asosiy ishi qolib ketyapti. O‘zi eng katta mehnatkash – profilaktika inspektori. Agar unga sharoit yaratsak, u davlatdan rozi bo‘lib ishlasa, ko‘p masalalar hal bo‘ladi”. Uchinchidan, aholining huquqiy ongini oshirishga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish.

Aholida huquqiy ong qanchalik kuchli bo‘lsa, huquqbuzarliklarning sodir etilish darajasi ham o‘z-o‘zidan kamayadi. To‘rtinchidan, sohaga faqatgina yetarli bilim va

ko'nikmaga ega bo'lgan nomzodlarni qabul qilish tizimini yo'lga qo'yish va ularning muomala madaniyatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasiga qaratilayotgan e'tibor natijasida hozirgi kunga kelib huquqbuzarliklarning sodir etilish darajasi sezilarli kamayib bormoqda va ishonamizki, yaqin yillar ichida bu ko'satkichlar bundanda ijobiyroq ko'rinishga keladi. Shu sabab sohaga e'tiborni bir zunga ham kamaytirmaslik lozim. Tinchlik bu buyuk ne'mat. Tinchlikni saqlovchilar esa bu ne'matning qanchalik muhim va totli ekanligini juda yaxshi bilishadi. Aholi ham bu ne'matning qanchalik muhim va kerak ekanligini anglab yetmoqda, shu sabab jamiyat, davlat rivojlanmoqda va yuksalmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin bo'ladiki huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida juda keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirildi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi bu davlat tizimidagi eng kerak bo'lgan muhim sohalardan bo'lgani bois so'ngi yillarda alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu o'zgarishlar amaliy jihatdan ham o'z aksini topib bormoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi ham moddiy ham huquqiy jihatdan ham yetarlicha ta'minlandi desa hech ham adashmagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 21.10. 2016 yil.
2. Yangi O'zbekiston gazetasi elektron Manbaa: <https://yuz.uz/uz/news/jamoat-xavfsizligini-taminlashda-profilatika-inspektorining-rol-i-qanday>.
3. O'zbekiston Respublikasi IIVning rasmiy veb sayti elektron Manbaa: <https://iiv.uz/news/profilaktika-inspektorlarining-faoliyati-bilan--bog'liq-ezgu-tashabbuslar>- 30 O'zbekiston Respublikasi IIVning rasmiy veb sayti elektron Manbaa: <https://iiv.uz/news/profilaktika-inspektorlarining-faoliyati-bilan--bog'liq-ezgu-tashabbuslar>.
4. O'zbekiston Respublikasining Yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi 2023-yil
5. Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonun 2016-yil 16-sentyabr
6. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonun 2014-yil 14may
7. 2021-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
8. 2022-yil 18-may kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi to'g'risida"gi qonuni
9. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risi"da qonuni 2014-yil 14 may. <https://lex.uz/acts/-2387357>

4G VA 5G SIMSIZ TARMOQLARINING XUSUSIYATLARI

Jumanova Zuxra Xolbayevna

jumanovazuxra10@gmail.com

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot

Texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali

Axborot texnologiyalari kafedrasi assistenti

Yo'ldoshev Anvar Baxtiyor o'g'li

anvaryuldoshev1906@gmail.com

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot

Texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali

Kompyuter injiniring fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

4G dan 5G simsiz tarmoqlariga evolyutsiya mobil aloqa texnologiyasida sezilarli yutuq bo'lib, tezlik, sig'im va funktsionallikning sezilarli yaxshilanishini ta'minlaydi. 10-100 Mbit / s yuklash tezligi va taxminan 50 millisekundlik kechikishlar bilan tavsiflangan 4G tarmoqlari ma'lumotlarni uzatish va tarmoq unumdorligini oshirish uchun OFDM va MIMO kabi texnologiyalardan foydalanadi. Ular mobil internet va VoIP xizmatlarini o'z ichiga olgan keng tarqalgan ilovalarni qo'llab-quvvatlaydi va keng tarqalgan global qamrovga ega.

Bundan farqli o'laroq, 5G tarmoqlari yuklama tezligi 1 dan 10 Gbit / s gacha va kechikishlar 1 millisekundgacha bo'lgan yangilanishlarni taklif qiladi. Millimetrli to'liq chastotalari, massiv MIMO va beamforming kabi ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda 5G tarmoqlari yuqori ma'lumot uzatish tezligi, yaxshilangan sig'im va signalning aniq yo'nalishini ta'minlaydi. 5G tarmoq arxitekturasida tarmoqni kesish va chekka hisoblashni qo'llab-quvvatlaydi, bu kengaytirilgan mobil keng polosali ulanish, massiv mashina tipidagi aloqalar va o'ta ishonchli past kechikishli aloqalar kabi turli ilovalarni osonlashtiradi. Tarmoqni yanada zichroq joylashtirishni talab qilishiga qaramay, 5G ning global chiqarilishi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda, bu innovatsion ilovalarni ishga tushirish va ulanishni yaxshilash orqali sanoatni inqilob qilishni va'da qilmoqda.

Kalit so'zlar: 4G simsiz tarmoqlari, 5G simsiz tarmoqlari, Mobil aloqa texnologiyasi

Yuklab olish tezligi, OFDM (*Ortogonal chastotalarni bo'lish multiplekslash*)

MIMO (*Multiple Input Multiple Output*), IP-ga asoslangan tarmoq

Tashuvchini birlashtirish, Kengaytirilgan mobil keng polosali ulanish (*eMBB*)

Massiv mashina tipidagi aloqalar (*mMTC*), Ultra ishonchli past kechikishli aloqalar (*URLLC*)

Abstract

The evolution from 4G to 5G wireless networks represents a significant advancement in mobile communication technology, offering substantial improvements in speed, capacity, and functionality. 4G networks, characterized by download speeds of 10-100 Mbps and latencies around 50 milliseconds, utilize technologies such as OFDM and MIMO to enhance data transmission and network performance. They support widespread applications, including mobile internet and VoIP services, and feature widespread global coverage.

In contrast, 5G networks offer groundbreaking enhancements, with download speeds ranging from 1 to 10 Gbps and latencies as low as 1 millisecond. Leveraging advanced technologies like millimeter wave frequencies, massive MIMO, and beamforming, 5G networks enable high data rates, improved capacity, and precise signal direction. The network architecture of 5G supports network slicing and edge computing, facilitating diverse applications such as enhanced mobile broadband, massive machine-type communications, and ultra-reliable low-latency communications. Despite requiring denser network deployment, 5G's global rollout is rapidly progressing, promising to revolutionize industries by enabling innovative applications and improved connectivity

Keywords: 4G wireless networks, 5G wireless networks, Mobile communication technology, Download rate, OFDM (*Orthogonal Frequency Division Multiplexing*) MIMO (*Multiple Input Multiple Output*), IP-based network Carrier Consolidation, Enhanced Mobile Broadband (*eMBB*) Massive Machine Type Communications (*mMTC*), Ultra Reliable Low Latency Communications (*URLLC*)

KIRISH

Simsiz tarmoqlar so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada rivojlandi, har bir yangi avlod tezlik, sig'im va funkcionallikda sezilarli yaxshilanishlarni olib keldi. 4G dan 5G ga sakrash mobil tarmoq texnologiyasidagi eng muhim yutuqlardan biri bo'lib, nafaqat yuqori tezlikni, balki turli sohalarda inqilob qilishi mumkin bo'lgan yangi imkoniyatlarni ham va'da qiladi. Quyida biz 4G va 5G simsiz tarmoqlarining xususiyatlarini o'rganamiz

4G uyali aloqa tarmoqlarining 4-avlodini anglatadi va u dastlab 2009 yilda chiqarilgan. 4G LTE yoki Long Term Evolution hali ham 2009 yildagi kabi 4G bo'lib, lekin ko'plab yangilanishlarga ega. 4G Wi-Fi bilan taqqoslanadigan tezlikni qo'llab-quvvatlaydigan birinchi tarmoq bo'lib, mobil video va o'yinlarni uzatish imkonini beradi. Bungacha 3G faqat elektron pochta va xaritalar kabi matnga asoslangan internetdan foydalanishni qo'llab-quvvatlay olardi.

Uyali aloqa tarmog'i asosan yuqori darajada rivojlangan radiotizimdir - shuning uchun uyali aloqa minoralari shaharlarda keng tarqalgan ko'rinishdir. Koderlar signallarga imkon qadar ko'proq ma'lumot kiritish uchun ishlaydi, ammo radiochastotalarda faqat juda ko'p ma'lumot bo'lishi mumkin. Shuning uchun ma'lumotlarni siqish 4G davrida asosiy e'tiborga aylandi. Ushbu siqishni uchun ruxsat bergan ishlanmalardan biri 4G-ning internet protokolidan (IP) foydalanishidir, ya'ni tarmoqda qilingan har qanday narsa eski mobil telefon signallari, hatto ovozli qo'ng'iroqlar ham emas, balki Internet texnologiyasidan foydalanadi.

5G 5-avlodni anglatadi. U 2019-yilda ishlab chiqarila boshlandi, biroq zarur infratuzilmani qurish va 5G-qobiliyatli qurilmalarni yaratish jarayoni qabul qilishni sekinlashtirdi. 5G texnologiyasi 4G bilan bir xil tarmoqqa asoslangan. Bu allaqachon mavjud bo'lgan narsaning rivojlanishi. 5G ning aql bovar qilmaydigan tezligiga erishish mumkin bo'lgan narsa so'nggi bir necha yil ichida texnologiyaning bir qator yutuqlaridir. Ushbu yirik yutuqlardan ikkitasi millimetrli to'lqinlar va nurlanishdir.

Millimetr to'lqinlari

4G va undan oldingi avlodlarda uzatish uchun mavjud bo'lgan chastotalar 6 gigagertsli yoki undan pastroq edi, ammo millimetrli to'lqinlar ancha yuqori spektrda - 30-300 gigagertsgacha uzatishi mumkin. Joriy spektr shu qadar gavjumki, signallar ko'proq foydalanuvchilar bilan bir-biriga mos kela boshlaydi. Ushbu yangi chastotalar kengayish uchun juda ko'p zamin ochadi. Millimetrli to'lqinlarning salbiy tomoni shundaki, ularning diapazoni juda kichik - shaharlarda bir milya atrofida va tekis erlarda 10 milyagacha. Shunday qilib, yuqori tezlikdagi 5G ni olish uchun, agar siz shaharda bo'lsangiz, eng yaqin minoradan bir mil uzoqlikda bo'lishingiz kerak.

4G va 5G: o'xshashliklar va farqlar

5G ni ishga tushirish chiroqni yoqish kabi emas. Minoralarning katta tizimini o'rnatish, hukumat ruxsatini olish va kerakli komponentlarni ishlab chiqarish ko'plab logistikani o'z ichiga oladi, ularni to'liq ishga tushirish uchun yillar kerak bo'ladi. Ushbu qiyinchiliklarga duch kelganingizda, siz uyali aloqa ehtiyojlaringiz uchun 4G va 5G o'rtasida tanlovga duch kelishingiz mumkin. Ammo ushbu texnologiyalar o'rtasidagi amaliy o'xshashlik va farqlar qanday?

Keling, 5G va 4G o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni batafsil ko'rib chiqaylik

O'xshashliklar

Internet protokoli asosida: 5G ko'proq ma'lumotlarni qayta ishlashga qodir bo'lsa-da, u 4G tomonidan joriy qilingan bir xil standart internet protokollaridan foydalanadi. Bu shuni anglatadiki, veb-foydalanishda katta farqlar yo'q

Minora tarmoqlari: 4G va 5G qurilmalari ishlash uchun uzatish minorasi yaqinida joylashgan bo'lishi kerak. Ularning hech birida eski uyali signalning diapazoni yo'q va siz hali ham uzoq joylarda qabul qilishda muammolarga duch kelishingiz mumkin.

Radio spektri: 4G va 5G uzatish uchun bir xil radio spektridan foydalanadi. Shu sababli, ikkala turdagi tarmoqlar ham signallarni tushirish bilan bog'liq bir xil muammolarga ega bo'ladi - yomon ob-havo, beton devorlar qabul qilishni to'sib qo'yishi va boshqa qurilmalar va uzatishlarning shovqini ehtimoli

Farqlar

O'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, 5G ning yangi texnologiyasi ba'zi muhim afzalliklar va kamchiliklarga ega

Cheklangan diapazon: 5G ishlatadigan millimetrlilik to'liqlar uzoq masofalarni bosib o'tolmaydi, shuning uchun 5G ancha kichikroq maydonlarni qamrab oluvchi uzatish minoralaridan foydalanishi kerak. Kerakli minoralar soni tufayli ko'plab hududlar hali ham ularni o'rnatmoqda

Bir nechta kirish va chiqishlar (MIMO): 5G ko'proq kirish va chiqishlar tufayli har qanday berilgan minora orqali 4Gga qaraganda qariyb o'n baravar ko'proq trafikni boshqara oladi.

To'liq dupleks: 5G uyali aloqa tayanch stantsiyalari deyarli bir vaqtning o'zida signallarni yuborish va qabul qilish imkoniyatiga ega - 4G buni qila olmadi. Bu kechikishni keskin kamaytirishi mumkin.

Qaysi biri tezroq: 4G yoki 5G?

5G 4G ga qaraganda ancha tezroq tezlikka ega bo'lsa-da, amalda uning tezligi bir qancha omillarga bog'liq. Xizmat ko'rsatuvchi provayderlar, joylashuv va ma'lum bir qurilmaning imkoniyatlari kabi narsalar sizning Internet tezligingizga ta'sir qiladi. Masalan, 2020-yil oxirida o'tkazilgan bir qator sinovlarda AT&T ning 4G tezligi sekundiga 37,1 megabitni (Mbit/s) tashkil etgan bo'lsa, 5G tezligi esa 75,6 Mbit/s gacha ko'tarildi. Bu 5G-ni katta sakrash kabi ko'rsatishi mumkin, ammo Verizon 4G bilan 53,3 Mbit / s dan 5G bilan 67,1 Mbit / s gacha sakrab chiqdi. Shubhasiz, hamma 5G ham teng yaratilmagan.

5G allaqachon texnologiya bilan o'zaro munosabatimizni o'zgartirmoqda va u endi boshlanmoqda. Pastroq kechikish va o'tkazish qobiliyatining oshishi uyali tarmoq va an'anaviy internet o'rtasidagi chiziqlarni xiralashtirishda davom etmoqda. 6 gigagertsdan 300 gigagertsgacha foydalanish mumkin bo'lgan spektrning ochilishi bilan kelgusi yillarda o'sish uchun juda ko'p joy mavjud. Tarmoq qanday bo'lishidan qat'i nazar, uyali IoT qurilmalari o'zgaruvchan uyali landshaftga moslasha oladigan ishonchli SIM-kartalarga muhtoj. Gologramning IoT SIM-kartasi LTE/4G/3G/2G texnologiyalariga kirish imkoniga ega IoT qurilmalari uchun uzluksiz, global qamrovni taqdim etadi. Hyper eUICC-ni qo'llab-quvvatlaydigan SIM-kartalarimiz yordamida siz aloqa operatori bilan qo'shimcha muzokaralar, integratsiya yoki apparat almashinuvisiz yangi ulanish hamkorliklariga kirish huquqiga ega bo'lasiz

Xulosa

4G dan 5G simsiz tarmoqlariga o'tish telekommunikatsiya sohasida muhim bosqichni ko'rsatadi. 4G mobil internet tezligi va ishonchliligini sezilarli darajada yaxshilagan bo'lsa-da, 5G misli ko'rilmagan tezligi, o'ta past kechikish muddati va ko'plab qurilmalarni ulash qobiliyati bilan yangi imkoniyatlarni ochishga va'da bermoqda. Ushbu evolyutsiya o'yin-kulgi va sog'liqni saqlashdan tortib transport va ishlab chiqarishgacha bo'lgan turli sohalarda innovatsiyalarni rag'batlantirishga, ulanish kelajagini shakllantirishga qaratilgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.R. Azizov, S.T. Boltayev. Darslik 5311000 – “Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (temir yo'l transportida)” bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun. Toshkent. ToshDTU. 2021. – 163b.
2. X.K. Aripov, A.M. Abdullayev, N.B. Alimova, X.X. Bustanov, Sh.T. Toshmatov. Raqamli mantiqiy qurilmalarni loyihalashtirish. Darslik. –T.: «Aloqachi», 2017, 396 bet.
3. Б.Х. Каримов, Ю.А.Ганин, Ф.Х.Рустамов. Radioelektronika asoslari. Ўқитувчи.1993. 138 б.
4. Fundamentals of Digital Logic with Verilog Design Third edition Stephen Brown and Zvonko Vranesic 2014, p.864.
5. Digital Electronics: Principles, Devices and Applications Anil K.Maini. John Wiley&Sons Ltd, 2007.
6. <https://www.ni.com>

FIZIKA FANINI O'QITISHDA TALABALAR MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI MUAMMOLI TA'LIM ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Payanova F.K. - TMTI assistenti

Samatova M.N. - TMTI assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil oquv faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilish va talabalarning mustaqil bilim olishlarini va ko'nikmalarini rivojlantirishga doir tavsiyalar bayon etilgan. Ta'lim sifatini oshirishning eng samarali omillaridan talabalar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish hamda ularda mustaqil o'qish ko'nikma va malakasini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirishdan iboratdir. Talabalar o'rgangan nazariy bilimlarini amaliyotga qollay olishda duch keladigan muammoli masalalar yechimini topish uchun mustaqil fikrlash muhim ahamiyatga ega. Barcha o'quv fani singari fizika fanini o'zlashtirishda mustaqil o'quv faoliyati muhim hisoblanib, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish va amaloyotda qo'llay olish bugungi kunning eng dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda. Maqolada talabalarning mustaqil bilim olishlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga doir tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Faoliyat, kompetensiya, kreativlik, qobiliyat, ko'nikma, malaka, texnologiya, kuzatish, izlanish.

Talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini muammoli o'qitish orqali tashkil etishda, ularni turli dalillar yig'indisi bilangina qurollantirmasdan, ularning ongini, fikrlashini, qobiliyatlarini yuksak darajada rivojlanishiga erishiladi. Muammoli o'qitish – talabalarga notanish bo'lgan nazariy yoki amaliy savollarning qo'yilishi bilan amalga oshiriladi. Bunday masalalarni hal qilish talabalardan yangi yechish yo'llarini mustaqil izlanishni talab qiladi. Shu sababli muammoli o'qitish jarayoni talabalarning faoliyatida har doim ijodkorlik ruhini rivojlantirish orqali tashkil etiladi. Talabalarning o'qishi, o'rganishi tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlarini bilishning asosi bo'lib hisoblanadi. Chunki bilish jarayonida ularning faol fikrlay olishi muhim ahamiyatga ega. Zero muammoli o'qitish fikr yuritishning manbai va bilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Mustaqil o'quv faoliyatida talabalar uchun har bir hodisasi: a) bilishning murakkabligini sezishsa; b) ularni bilishga qiziqish paydo bo'lsa; v) bilish jarayoni ularning tajribalariga va bilimlariga tayanib olib borilsa samarali natijaga erishishiladi. Muammoli o'qitish jarayoni talabalarning jalb qilinishi bo'yicha uch turga bo'linadi: butun guruhga mo'ljallangan, yakka talabaga va hohlovchilarga mo'ljallangan muammolar. Butun guruhga mo'ljallangan muammolarni asosan o'qituvchi tomonidan talabalarga taqdim etiladi va talabalar muammoning yechimini o'z

shaxsiy fikrlaridan kelib chiqib topishadi. Talabalar fikrlari umumlashtirilib muammo yechimi hulosalanadi.

Muammoli o'qitishning ikkinchi turida har bir talabaga alohida muammoli topshiriq beriladi va har biri o'zi mustaqil ishlab yechim topishadi. Har bir talaba fikrlari individual tarzda tahlil qilinadi.

Fizika fanida muammoli o'qitish mazmuniga ko'ra nazariy, amaliy va aralash turdagi muammolarga bo'linadi. Nazariy muammolar yangi qonuniyatlarni hulosalashda, tajriba natijasini nazariy jihatdan asoslashda va tadqiqot yurgizish bilan masala ishlashda qo'llaniladi. Talabalarning turli amaliy masalalarni yechish usullarini va amaliy ishning bajatilish nazariasini muammoli o'qitishning amaliy muammolar turi orqali amalga oshiriladi. Biroq, muammo amaliy usulda yechilsa ham nazariy bilimlar orqali hulosalanadi. Aralash turdagi muammolarni hal qilishda talabalar nazariy va amaliy bilimlarini mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi talab etiladi. Masalan "Elektrolitlarda elektr toki" mavzusi misolida ko'raylik. Bu mavzuni o'rganishdan asosiy maqsad talabalarni elektrolitlarda elektr tokining tabiatini bilish hisoblanadi. Mavzuni tajribada toza distillangan suvdan elektr toki o'tmasligi, suvga osh tuzi eritmasi aralashtirilgandan keyin suyuqlik elektr tokini o'tkazish hususiyatiga ega bo'lib qolishi holatidan muammoli savol tug'ilishi bilan boshlash: "Elektrolitdagi elektr tokining tabiati qanday? Unda elektr tokini tashuvchi bo'lib nimalar xizmat qiladi?" – kabi savollarni aniqlab qo'yishi kerak. Muammoni hal qilish jarayonida talabalarning fikrlashi quyidagi ketma-ketlikda beriladi: "Elektr toki to'g'risida men nimani bilaman?". Elektr toki zaryadlangan zarralarning tartibli harakati. Demak elektrolitda zaryadlangan zarralar bor va ular tartibli da bo'lishadi. Talabalarning fikrlashi mis sulfatning suvdagi eritmasi orqali tokning o'tishini isbotlagan tajriba orqali mustahkamlanadi. Bundan keyin ularda: "Elektrolitda tokni tashuvchi zarralar nima? degan savol tug'iladi. Bu masala bo'yicha talabalarning fikri quyidagicha bo'lishi mumkin: "Metallarda bunday zarralar bo'lib elektron hisoblanadi. Elektrolitlardachi?" Demak shu holda muammoli vaziyat yuzaga keldi desak bo'ladi. Ular yuzaga kelgan muammoning mazmunini tushunishga harakat qilishadi va uning yechimini topishga muvaffaq bo'lishadi, u quyidagicha bo'lishi mumkin. "Zaryadlarni erkin olib yuruvchilar qatoriga elektrondan boshqa yana qanday zarralar kirishi mumkin? Protonlarmi? Yo'q, ular atomning yadrosida joylashgan. Ionlarchi? Mis sulfatning suvdagi eritmasida ular qanday paydo bo'ladi?" Bu savollarga javob topish uchun yangi axborot kerak. Shu maqsadda, talabalar bu muammoga yechim topish uchun mustaqil fikr yuritish mantiqini va o'quv materialining mazmunini tanlaydi. Talabalar yangi materialni o'zlashtirish moddaning kimyoviy tarkibiga bog'liqligini anglab, moddaning ichki tuzilishiga e'tibor qaratishadi. Fikrlar ketma-ketligi jamlanib talabalar egallaydigan yangi bilimlarning elementlarini va ularni o'zlashtirishga kerakli tayanch bilimlarni aniqlaydi. Oquv

materialni o'zlashtirish uchun yordamchi tushunchalar haqida ma'lumotlar ta'riflari nazariy o'rganiladi. Bu dars jarayonida talabalarning tayanch bilimlarini faollashtirish, muammoni tushunish va uni hal qilish yo'lini izlash rejasi tuziladi. Yangi mavzuni o'zlashtirish uchun mustaqil fikrlab oldin o'tilgan materiallardan foydalanish talab qilinadi.

O'qitishning hohlovchilarga mo'ljallangan turida muammoli savollar ham bir nechta bo'lib talabalar ham savollarni tahlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Muammolar yechimi har bir talaba tomonidan mustaqil o'rganiladi.

Muammoli vaziyat o'qituvchining maqsadli uyushtirilgan harakatisiz, talabalarning mustaqil ishlashi: darslik yoki qo'shimcha adabiyotlarni o'qishi, matbuotdan ko'rib o'rganishi, masala yechishi yoki mustaqil eksperiment o'tkazishi orqali o'rganiladi. Talabalarning mustaqil o'quv faoliyatining samadorligini oshirishda kreativ ishlash usuli muammoni tez hal qilishga olib keladi va kreativ texnikani qo'llashda pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Mustaqil o'qishni tashkil etishda qator ustunliklarga ega bo'lgan texnik jarayonlarga e'tibor berish zarur. Izlanishlar va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizmining barcha pog'onalarida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish va amaliy tajribalarni qo'yishda texnologik muammolar yuzaga keladi. Bunda talabalarning to'la mustaqilligi asosiy rol o'ynaydi. O'qituvchining asosiy maqsadi har bir holda talabalarning faoliyatini to'g'ri rejalashtirib, ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishga va ishi to'grisida o'z vaqtida hulosa chiqarib, kerakli tuzatishlarni kiritish bilan aniqlanadi.

Hulosa. Talabalarning mustaqil ijodiy izlanishlari natijasida muammoli masalalarga yechim topish, ularning duyoqarashining rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shadi. Mustaqil o'qishning asosiy maqsadi, talabaning o'qituvchining yordamisiz shug'ulanishi bilan emas, balki uning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Talabalarning mustaqil ishini pedagogik kuzatish-bu o'qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil o'qish jarayonini ilmiy-pedagogik jihatlarini ta'minlash va o'quv vazifalarini bajarishda talabalarga amaliy yordam berishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov A.A. Fizika mashg'ulotlari jarayonida talabaning eksperimental kompetentligini ta'minlash // Pedagogika. – Toshkent: 2018. – № 1. – B. 81-88.
2. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – T.: «Iqtisodiyot» 2012. – 154 b.
3. Djoraev M. Fizika o'qitish metodikasi (Umumiy masalalar). – Toshkent: Abu Matbuot Konsalt, 2013. – 256 b.

4. Sulstonova O'.N., To'raev B. Sulstonov S.N. "Fizika fanidan muammoli masalalar yechishda kompetensiyaviy yondashuv" выпуск 6 (50) f.a mamadaliev, egyptian triangle (books 1, 2,3) t/ "renessans press"-.: 2018 y, 144-149.

4 Payanova F.K. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab rivojlantirish

.O'zMUxabarlari7- son 143-146 .5. Djo'raev R.H. Ta'limda interfaol texnologiyalar. –Toshkent: 2010. - 87 b.

Internet manbalari

1. www.multimedia.uz.
2. www.ziyonet.uz.
3. <http://schools.techno.ru/sch1567/metodop/microsprovochnik/metodsprav.htm>
4. <http://pphysics.nw.ru/index.htm>.

ТА'ЛИМ SIFATINI OSHIRISHDA МАТЕМАТИКА VA FIZIKA FANLARARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI

Payanova F.K.

Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti

Sakiyeva B.B.

Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limning barcha bosqichlarida fizika fanini o'qitishda fanlararo aloqalardan foydalanish muhimligi ko'rsatilgan. Darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish bilim oluvchilarning fanga qiziqishni va bilim olish jarayoniga motivatsiyani oshirish bilan birga fizika-matematika fanlarini o'qitishning sifat ko'rsatkichlarini ham yaxshilash imkonini berdi.

Tayanch so'zlar: fanlararo aloqalar, o'qitish, dars, fizika, matematika

Mavzuning dolzarbligi: Fanlararo aloqalar-alohida o'quv fanlarini o'zlashtirishda integrativ yondashuvni aks ettiradi va o'rganuvchilarning fanlar mazmuni orasidagi birlikni, ta'lim mazmunining asosiy elementlarini va o'quv fanlar munosabatlarni anglashga imkon beradi. O'quv fanlari o'rtasidagi bog'liqlik orqali alohida fanlar o'rtasidagi umumiylik va bu fanlarning har biriga tegishli bo'lgan ma'lumotlar haqida kengroq tushunib olishga erishiladi.

Mavzuning bayoni: O'gitishning bu usuli orqali talim dasturining ichki birligiga erishiladi. Fanlararo aloqadorlik nazariyasining rivojlanishiga maktabda o'quv fanlari soni ortishi va bilimlarning tabaqalanishi sabab bo'ldi. J. I. L. "Bir fanni o'rganish jarayoni boshqa fanlar elementlari bilan to'ldirilishi kerak" deb hisoblagan. Barcha o'quv fanlari o'rtasidagi bog'liqlik – bu bilim oluvchilarning dunyoviy bilimlarini kengaytiradi va o'rgangan bilimni amaliy hayotda qollay olish malakasini oshiradi. Keling bitta mavzu misolida matematika va fizika o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatamiz. Matematika dasturiga "differensial hisoblash" mavzusi kiritilgan. Hosilaning mexanik ma'nosi shundan iboratki, moddiy nuqtaning ma'lum t_0 vaqtidagi oniy tezligi shu nuqtaning t_0 vaqtidagi harakat qonunini ifodalovchi tenglamadan vaqt bo'yicha olingan birinchi tartibli hosilasi bilan ifodalanadi.

$$v(t) = s'(t)$$

1-misol Agar nuqta $s(t) = 4t^2 - 3t - 1$ qonunga muvofiq harakat qilsa, moddiy nuqtaning vaqtdagi oniy tezligini $t_0 = 2s$ oniy tezligini toping. Yechish: Nuqta tezligi yo'lning vaqtga nisbatan hosilasiga teng:

$$v(t) = s'(t) = (4t^2 - 3t - 1)' = 8t - 3$$

$$t_0 = 2s \text{ vaqtdagi oniy tezlik: } v(2) = 8 \cdot 2 - 3 = 16 - 3 = 13$$

Javob: $v = 13 \text{ m/s}$.

2-misol. Nuqta $s(t)=3t^2 -7t+1$ qonuniga ko'ra to'g'ri chiziqli harakatlansin. Vaqtning qaysi nuqtasida nuqta tezligi $v=5$ m/s bo'ladi?

Yechish: Hosilaning fizik ma'nosidan foydalanib, biz moddiy nuqta tezligining o'zgarish qonunini topamiz: $v(t)=s'(t)=(3t^2 -7t+1)'=6t-7$ Tezlik 3m/s ga teng bo'ladigan t_0 vaqtini topish uchun $v(t)=5$ tenglamani tuzish va yechish kerak:

$$6t - 7 = 5 \quad 6t = 12 \quad t=2 \quad \text{Javob: } t= 2s.$$

Matematika va fizika fanlari bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi, ular doimo o'zaro bog'liqlikda rivojlangan. Bu ikki fan o'rtasidagi bog'liqlik har bir fanning individual rivojlanishiga turtki bo'ldi. Matematika, o'z navbatida, nazariy tadqiqotlar yoki tajribalar natijasida vujudga keladigan fizik kattaliklar orasidagi munosabatlarni ifodalash uchun usul va vositalar bilan ta'minlaydi. Hozir, hatto o'qituvchilar orasida ham, o'rta maktabda matematika va fizika o'rtasidagi fanlararo aloqalar faqat ushbu fanlarni chuqur o'rganadigan maktablarda mavjud bo'lishi mumkin degan fikrni tez-tez eshitish mumkin. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, fizikani o'qitishning barcha darajalarida fanlararo aloqadorlik orqali fizik qonunlarni ifodalovchi formulalarni keltirib chiqarish uchun qulaylik yaratadi. Fizika fanidan bir masalani yechish uchun matematik tenglamalar tizimini tuzish, algebraik o'zgartirishlar kiritish va geometrik konstruksiyalarni chizish talab qilinadi. O'quvchilarning matematik tayyorgarligi, uning darajasi fizika fanini o'rganish uchun zamin yaratadi. Fizikani o'qitish dasturlari o'quvchilarning matematikadan olgan bilimlarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Fizikaning "Mexanika" bo'limini o'qitishda geometriyaning vektorlar algebrasi asoslari orqali tushuntiriladi. Dastlab fizik kattaliklarni skalyar va vektor kattaliklar turlariga ajratib olinadi. Faqat son qiymat bilan aniqlanadigan kattaliklar skalyar kattaliklar, son qiymati va yo'nalishi bilan aniqlanadigan kattaliklar vektor kattaliklar deyiladi. Kinematikada moddiy nuqtaning har qanday harakatida ko'chish, tezlik va tezlanish yo'nalishlarini tasvirlash uchun vektorlardan foydalaniladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda fizika va matematika bo'yicha o'quv materiallarini o'tishda aniq vaqtinchalik nomutanosiblik mavjud. Masalan, geometriyadan "vektorlar" mavzusini va 9-sinf fizikasida o'rganilgan "Kinematika" mavzusini, 7-sinf fizika kursidagi "tezlik" va "kuch" mavzularini olaylik. Kuch va tezlik tushunchalarini o'rganayotganda, biz darhol 7-sinf o'quvchilari vektor miqdorlari haqida ma'lumot olishlarini ta'kidlaymiz. To'qqizinchi sinf boshida "Kinematika" mavzusini bir yildan ortiq o'rgangandan so'ng o'quvchi vektor algebrasi asoslari bilan tanishadi, geometriya darslaridan farqli ravishda vektorlarni qo'shish va ayirishni o'rganadi. Ushbu vaqtinchalik nomuvofiqlik ta'limning asosiy darajasi uchun mavzuli darsni rejalashtirish bilan qonuniylashtiriladi. Yuqorida muhokama qilingan vaqt tafovutlari bilan bir qatorda, fizika va matematika bo'yicha maktab dasturlari o'rtasida ham konseptual tafovutlar mavjud bo'lib, bu darsliklardagi fanlarning konseptual

talqinini ajratib turadi, bundan tashqari, alohida atamalar turlicha izohlanadi va belgilanadi. Keling, geometriya fanidan “vektorlar” mavzusini, 7-sinf fizika kursidagi “tezlik”, “kuch” mavzularini va 9-sinf fizika kursidagi “Kinematika” mavzularini yana bir bor taqqoslaylik. Ettinchi sinf fizika kursida vektor kattaliklar nafaqat yo'nalishga ega bo'lgan fizik kattaliklar sifatida belgilandi. To'qqizinchi sinfgacha o'qigan o'quvchilar geometriya kursida masofani saqlagan holda tekislikning o'ziga nisbatan tasviri sifatida belgilangan harakat haqida ma'lumot oldilar. Unda parallel o'tkazish operatsiyasi siljishning alohida holati sifatida qaraladi. Biroq, harakatning o'zi ham, parallel uzatish operatsiyasi ham fizika kursiga kiritilgan vektor tushunchasi bilan talabalar ongida mutlaqo bog'liq emas. Bu qarama-qarshilik faqat yuqori toifali o'qituvchining intensiv qo'shimcha ishi bilan bartaraf etiladi.

Hulosa: Fizika fanini o'qitish matematika bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi bilim oluvchilarning bilimini oshirish bilan birga olingan bilimlarni qo'llay olish malakasini rivojlantiradi. Fanlararo aloqadorlik usuli orqali har bir fanga tegishli dunyoviy bilimlar ortishiga erishiladi. O'quv fanlari o'rtasidagi bog'liqlik orqali alohida fanlar o'rtasidagi umumiylik va bu fanlarning har biriga tegishli bo'lgan ma'lumotlar haqida kengroq tushunib olishga erishiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Belenkiy G.I. / Fanlararo aloqalarning tarbiyaviy va tarbiyaviy jihatlarini haqida // Zamonaviy pedagogika. - 1977. - 5-son. - 56-61-betlar
2. Guryev A.I., Zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotidagi fanlararo aloqalar // Zamonaviy ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonlar. - Gorno-Altaysk, 999 - S. 160
3. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik liseylarda matematika o'qitish misolida): Ped.fan.dokt...diss. avtoref. –T., 2006, - 49 b. 49.
4. Ў.Н.Султонова ў.н. .“физикани ўқитиш технологиялари ва лойиҳалаштириш”. “техника ва технологик фанлар соҳаларининг инновацион масала-лари” мавзусидаги халқаро илмий-техник анжумани. -.:2020 йил 22 сентябрь. - 410-412. Б
5. Payanova F.K. “Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishda masalalarning ahamiyati.” TDPU Ilmiy Axborotlari Ilmiy nazariy jurnal 10-son 5-11.b.

Internet manbalari

1. www.multimedia.uz.
2. www.ziyonet.uz.
3. <http://schools.techno.ru/sch1567/metodop/microsprovochnik/metodsprav.htm>
4. <http://pphysics.nw.ru/index.htm>
5. <http://www.phus.spbu.ru/~monakhov/>

ANIQ INTEGRALNING FIZIK VA IQTISODIY MASALALARDA QO‘LLANILISHI

TMTI assistenti - F.K.Payanova

TMTI assistenti - Z.Jo‘rayeva

I kurs talabasi - S.B.Xursanova

Annotatsiya: Differensial va integral hisob yaratilgach bir qator geometrik, fizik, mexanik va iqtisodiy masalalarni yechish uchun imkoniyat paydo bo‘ldi. Ushbu maqolada matematikadan amaliy mashg‘ulotlarda aniq integral tushunchasiga olib keluvchi masalalar orqali mavzuning tadbirlari haqida aytib o‘tilgan. Talabalarga aniq integral mavzusining ahamiyatligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Differensial hisob, integral, yuqori va quyi chegara, o‘zgaruvchi kuch bajargan ish, notekis harakatda bosib o‘tilgan masofa,

Lorents egri chizig‘i, talab funksiyasi, taklif funksiyasi, bozor muvozanati.

Aniq integral juda ko‘p amaliy masalalarni yechish uchun qo‘llaniladi. Geometriyada aniq integraldan turli ko‘rinishdagi egri chizikli trapetsiyalarning yuzalarini hisoblash, egri chiziq yoyining uzunligini topish, jismlar hajmini aniqlash kabi masalalarni yechishda foydalaniladi. Aniq integralning mexanik tadbirlariga misol sifatida kuch bajargan ishni hisoblash, notekis harakatda bosib o‘tilgan masofani aniqlash, sim massasini topish kabilarni ko‘rsatish mumkin. Iqtisodiy nazariyada esa aniq integral yordamida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini topish, iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lgan Djini koeffitsiyentini hisoblash, iste‘molchi va ishlab chiqaruvchining yutug‘ini aniqlash kabi masalalar o‘z yechimini topadi. Aniq integral tadbirlari sifatida ayrim masalalarni ko‘rib chiqamiz

O‘zgaruvchi kuch bajargan ishni hisoblash masalasi. Yo‘nalishi va kattaligi o‘zgarmas bo‘lgan kuch ta’sirida moddiy nuqta L to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakat qilayotgan bo‘lsin. Bunda kuch yo‘nalishi bilan moddiy nuqtaning harakat yo‘nalishi bir xil deb olamiz. Agar bu shartlarda kattaligi f bo‘lgan kuch ta’sirida moddiy nuqta L to‘g‘ri chiziq bo‘ylab a nuqtadan b nuqtaga ko‘chirilsa, ya’ni $b-a$ masofaga siljigan bo‘lsa, unda bajarilgan ish $A=f(b-a)$ formula bilan aniqlanishi bizga maktab fizika kursidan ma’lum.

Endi yuqoridagi shartlardan kuch kattaligi o‘zgarmas degan shartdan voz kechib, u harakatning har bir x nuqtasida biror uzluksiz $f(x)$ funksiya bo‘yicha o‘zgarib boradigan umumiyroq holni qaraymiz. Bu holda kuch moddiy nuqtani $[a,b]$ kesma bo‘yicha harakatlantirganda bajarilgan A ishni hisoblash masalasi paydo bo‘ladi. Bu masalani yechish uchun moddiy nuqtani bosib o‘tgan yo‘lini ifodalovchi $[a,b]$ kesmani oldingi masaladagi singari n ta bo‘laklarga ajratib, har bir $[x_{i-1}, x_i]$ ($i=1,2,$

... , n) kichik kesmada o'zgaruvchi kuchning bajargan ishini ΔA_i deb belgilaymiz. Bu holda $[a, b]$ kesmada bajarilgan umumiy A ish qiymatini

$$A = \Delta A_1 + \Delta A_2 + \dots + \Delta A_n = \sum_{i=1}^n \Delta A_i$$

yig'indi ko'rinishida ifodalash mumkin. Bu yerda ham ΔA_i ishning aniq qiymatini hisoblay olmaymiz. Ularning taqribiy qiymatlarini hisoblash uchun $[x_{i-1}, x_i]$ kesmachalarning har biridan ixtiyoriy ξ_i nuqtani tanlab olamiz va unda kuchning $f(\xi_i)$ qiymatini hisoblaymiz. Uzunligi $\Delta x_i = x_i - x_{i-1}$ bo'lgan bu kichik kesmada kuch kattaligi o'zgarmas va $f(\xi_i)$ deb hisoblab, ushbu taqribiy tengliklarni yoza olamiz:

$$\Delta A_1 \approx f(\xi_1) \cdot \Delta x_1, \Delta A_2 \approx f(\xi_2) \cdot \Delta x_2, \dots, \Delta A_i \approx f(\xi_i) \cdot \Delta x_i, \dots, \Delta A_n \approx f(\xi_n) \cdot \Delta x_n.$$

Bularni yuqoridagi yig'indiga qo'yib, izlanayotgan A ishning taqribiy qiymatini topamiz:

$$A \approx \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta x_i.$$

Bu yerda ham $[x_{i-1}, x_i]$ bo'laklar soni n oshib borgan sari (5) taqribiy tenglik xatoligi tobora kamayib boradi deb kutish mumkin. Shu sababli A ishning aniq qiymati

$$A = \lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta x_i$$

limit orqali ifodalanadi.

Notekis harakatda bosib o'tilgan masofani hisoblash. Ma'lumki, biror v o'zgarmas tezlik bilan to'g'ri chiziq bo'ylab tekis harakat qilayotgan moddiy nuqtaning $[a, b]$ vaqt oralig'ida bosib o'tgan s masofasi $s = v(b - a)$ formula bilan hisoblanadi. Endi tezligi har bir t vaqtda o'zgaruvchan va $v = v(t)$ funksiya bilan aniqlanadigan notekis harakatda moddiy nuqtaning $[a, b]$ vaqt oralig'ida bosib o'tadigan masofani hisoblash masalasini ko'ramiz. Buning uchun $[a, b]$ vaqt oralig'ini $a = t_0, t_1, t_2, \dots, t_{n-1}, t_n = b$ nuqtalar bilan ixtiyoriy n bo'lakka ajratamiz. Har bir (t_{i-1}, t_i) vaqt oraliqchalari uzunliklarini Δt_i kabi belgilaymiz va undan ixtiyoriy bir \tilde{t}_i nuqtani tanlaymiz. Moddiy nuqtaning (t_{i-1}, t_i) vaqt oraliqchalarida bosib o'tgan masofasini s_i kabi belgilab, bu vaqtda uning v_i tezligi taqriban o'zgarmas va $v_i = v(\tilde{t}_i)$ deb olamiz. Bu holda $s_i \approx v_i \Delta t_i = v(\tilde{t}_i) \Delta t_i$ bo'lib, bosib o'tilgan s masofa uchun

$$s = \sum_{i=1}^n s_i \approx \sum_{i=1}^n v_i \Delta t_i = \sum_{i=1}^n v(\tilde{t}_i) \Delta t_i$$

taqribiy tenglikni hosil qilamiz. Bu masofaning aniq qiymatini topish maqsadida bo'lakchalar soni n ni cheksiz oshirib boramiz. Bunda $\Delta_n = \max_{1 \leq i \leq n} \Delta x_i$ cheksiz kamayib boradi deb hisoblaymiz. Natijada, aniq integral ta'rifiga asosan,

$$s = \lim_{\substack{n \rightarrow \infty, \\ \Delta_n \rightarrow 0}} \sum_{i=1}^n v(\tilde{t}_i) \Delta t_i = \int_a^b v(t) dt$$

formulaga ega bo'lamiz.

Misol sifatida tezligi $v(t)=6t^2+2t$ qonun bo'yicha o'zgaradigan notekis harakatda [3,8] vaqt oralig'ida bosib o'tilgan s masofani yuqoridagi formulaga asosan topamiz:

$$s = \int_3^8 (6t^2 + 2t) dt = \left(\frac{6t^3}{3} + \frac{2t^2}{2} \right) \Big|_3^8 = (2t^3 + t^2) \Big|_3^8 = (2 * 8^3 + 8^2) - (2 * 3^3 + 3^2) = 1088 - 63 = 1025.$$

Bundan tashqari aniq integral bir jinsli bo'lmagan sim massasini, yassi chiziq va geometrik shaklning og'irlik markazi, inersiya momentlarini hisoblash uchun ham qo'llaniladi.

Endi aniq integralning ayrim iqtisodiy tatbiqlarini qaraymiz.

Mahsulot hajmini topish masalasi. Agar ish kuni davomida mehnat unumdorligi o'zgarmas, ya'ni ixtiyoriy t vaqtda uning kattaligi f bo'lsa, unda

(T_1, T_2) vaqt oralig'ida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi $V=f \cdot (T_2 - T_1)$ formula bilan hisoblanadi. Masalan, sozlangan avtomatik qurilma uchun bu holni o'rinli deb olish mumkin.

Ammo ishchining mehnat unumdorligi to'g'risida bunday deb bo'lmaydi. Masalan, ish kunining boshlang'ich davrida (ishga ko'nikish) uning mehnat unumdorligi ma'lum bir vaqtgacha o'sib boradi. So'ngra, ishga kirishib ketgandan keyin, ma'lum bir vaqt oralig'ida bir xil unumdorlik bilan mahsulot ishlab chiqaradi. Ish kuni oxiriga yaqinlashgan sari, charchash tufayli, mehnat unumdorligi pasayib boradi. Shunday qilib mehnat unumdorligi o'zgaruvchan va t vaqtga bog'liq ravishda biror uzluksiz $f(t)$ funksiya orqali aniqlangan bo'ladi. Bu holda (T_1, T_2) vaqt oralig'ida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi V uchun yuqoridagi formula o'rinli bo'lmasligi ravshandir va uni topish masalasi paydo bo'ladi. Bu masala ham oldingi masalalardagi mulohazalar asosida quyidagicha yechiladi. (T_1, T_2) vaqt oralig'ini ixtiyoriy ravishda tanlangan

$$T_1=t_0 < t_1 < t_2 < \dots < t_i < \dots < t_{n-1} < t_n = T_2$$

nuqtalar bilan n ta (t_{i-1}, t_i) ($i=1, 2, 3, \dots, n$) vaqt oraliqlariga bo'laklaymiz. Bu vaqt oraliqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini ΔV_i ($i=1, 2, 3, \dots, n$) deb belgilasak, unda butun vaqt oralig'ida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi

$$V = \Delta V_1 + \Delta V_2 + \dots + \Delta V_n = \sum_{i=1}^n \Delta V_i$$

yig'indi kabi ifodalanadi. Bu yig'indidagi qo'shiluvchilarning taqribiy qiymatlarini topish maqsadida (t_{i-1}, t_i) ($i=1, 2, 3, \dots, n$) vaqt oraliqlaridan ixtiyoriy bir ξ_i vaqtni tanlab olamiz va unda $f(\xi_i)$ mehnat unumdorligini aniqlaymiz. Kichkina

(t_{i-1}, t_i) oraliqda uzluksiz $f(t)$ funksiya o'z qiymatini unchalik ko'p o'zgartira olmaydi va shu sababli bu yerda mehnat unumdorligini o'zgarimas va uning qiymati $f(\xi_i)$ deb olishimiz mumkin. Shu sababli $\Delta t_i = t_i - t_{i-1}$ vaqt ichida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi uchun

$$\Delta V_i \approx f(\xi_i) \cdot \Delta t_i, \quad i=1,2,3, \dots, n,$$

taqribiy tengliklarni yozish mumkin. Bu taqribiy tengliklarni yuqoridagi yig'indiga qo'yib,

$$V \approx \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta t_i$$

taqribiy natijaga ega bo'lamiz. Bu holda mahsulot hajmining aniq qiymati

$$V = \lim_{n \rightarrow \infty} \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta t_i$$

limit orqali topiladi.

Aniq integral tushunchasi kiritilayotganda, o'zgaruvchan mehnat unumdorligi bo'yicha mahsulot hajmini aniqlash masalasini ko'rgan edik. Masalan, korxonada mehnat unumdorligi har bir ish kuni davomida $z = f(t) = -0,0012t^2 - 0,08t + 20,6$

$$z = f(t) = -0,0033t^2 - 0,089t + 20,96$$

funksiya bilan berilgan bo'lsin. Bunda $0 \leq t \leq 8$ bo'lib, t vaqtni soatda ifodalaydi. Bu korxonaning yil (254 ish kuni) davomida ishlab chiqargan mahsulot hajmini topamiz:

$$Q = 254 \int_0^8 (-0,0012t^2 - 0,08t + 20,6) dt = 254 (-0,0012t^3 - 0,04t^2 + 20,6t) \Big|_0^8 = 254 (-0,0004t^3 - 0,04t^2 + 20,6t) \Big|_0^8 = 254 (-0,2048 - 2,56 + 164,8) = 41156,9408.$$

Demak, bu korxonada bir yilda 41156 dona mahsulot ishlab chiqaradi. Biz yana bir qator iqtisodiy masalalarni aniq integral yordamida yechishimiz mumkin

Yuqoridagi fizik va iqtisodiy mazmunli turli masala bir xil matematik usulda o'z yechimini topib bir xil limit orqali ifodalandi. Shu sababli bu usul va limitni umumiy holda qarash ma'noga egadir.

Xulosa. Juda ko'p amaliy masalalarni yechish aniq integral tushunchasiga olib keladi. Masalan, geometriyada egri chiziqli trapetsiya yuzasini topish, fizikada o'zgaruvchi kuch bajargan ishni hisoblash, iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini aniqlash kabi masalalar shular jumlasidandir. Aniq integral berilgan funksiya va kesma bo'yicha tuziladigan integral yig'indining limiti kabi aniqlanadi. Berilgan kesmada chegaralangan va faqat chekli sondagi uzilish nuqtalariga ega bo'lgan funksiya uchun aniq integral mavjud bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan masalalardan aniq integralning mexanik va iqtisodiy ma'nolari kelib chiqadi. Aniq integral qiymatini hisoblash yoki baholash uchun uning bir qator xossalardan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guryev A.I., Zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotidagi fanlararo aloqalar // Zamonaviy ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonlar. - Gorno-Altaysk, 999 - S. 160
2. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik liseylarda matematika o'qitish misolida): Ped.fan.dokt...diss. avtoref. –T., 2006, - 49 b.
- 3.N.P.Rasulov, I.I.Safarov. Oliy matematika. Darslik.Toshkent 2012.
4. Nasriddinov K. Fizikani o'qitish masalalar ishlash metodikasi.Toshkent: Фан ва технология, 2006.

КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ УСТАНОВКИ ВЛИЯЮТ НА ЖИЗНЬ ЧЕЛОВЕКА

Бабаева Назира Асатуллаевна
Преподаватель Самаркандского
Института экономики и сервиса
Электронная почта:
nbabaeva987@gmail.com

Аннотация: Психологические установки сопровождают нас повсюду. Психологическими установками называют программу поведения, которая заложена у человека в подсознании. Человек не осознает этот факт или прослеживает тенденцию уже после совершения поступков. Установки формируются в зависимости от того, что мы видим чаще всего. Установки есть у каждого. И это не зависит от возраста, пола, религии. Этапы установки. Я хороший и ты хороший. Я хороший, а ты плохой. Я плохой, а ты хороший. Я плохой и ты плохой.

Ключевые слова: Этапы установки. Я хороший и ты хороший. Я хороший, а ты плохой. Я плохой, а ты хороший. Я плохой и ты плохой.

How psychological attitudes influence a person's life.

Abstract: Psychological attitudes accompany us everywhere. Psychological attitudes are called a behavioral program that is embedded in a person's subconscious. A person does not realize this fact or traces the trend after committing actions. Attitudes are formed depending on what we see most often. Everyone has settings. And this does not depend on age, gender, religion. Installation steps. I am good and you are good. I'm good and you're bad. I'm bad and you're good. I'm bad and you're bad.

Key words: Installation steps. I am good and you are good. I'm good and you're bad. I'm bad and you're good. I'm bad and you're bad.

Psixologik munosabatlar inson hayotiga qanday ta'sir qiladi.

Annotasiya: Psixologik munosabatlar bizga hamma joyda hamroh bo'ladi. Psixologik munosabat insonning ong ostiga singib ketgan xulq-atvor dasturi deb ataladi. Biror kishi bu haqiqatni anglamaydi yoki xatti-harakatlardan keyin tendentsiyani kuzatadi. Munosabatlar biz tez-tez ko'rgan narsalarga qarab shakllanadi. Har kimning sozlamalari bor. Va bu yoshga, jinsga, dinga bog'liq emas. O'rnatish bosqichlari. Men yaxshiman, sen esa yaxshisan. Men yaxshiman, sen esa yomonsan. Men yomonman, sen esa yaxshisan. Men yomonman, sen esa yomonsan.

Kalit so'zlar: O'rnatish bosqichlari. Men yaxshiman, sen esa yaxshisan. Men yaxshiman, sen esa yomonsan. Men yomonman, sen esa yaxshisan. Men yomonman, sen esa yomonsan.

Психологические установки сопровождают нас повсюду. Определенным посылом наделены фильмы и телепередачи. Специалисты в различных областях также работают с каждым клиентом через эти самые установки. Психологическими установками называют программу поведения, которая заложена у человека в подсознании. Человек не осознает этот факт или прослеживает тенденцию уже после совершения поступков. Установки формируются в зависимости от того, что мы видим чаще всего. При этом задействована не только самооценка, но и оценка окружающих людей.

Нет такого человека, который не имел бы в подсознании модели поведения.

Психологи условно делят психологические установки на четыре типа:

- Я хороший и ты хороший. Это самая эффективная установка, благодаря которой человек понимает, что чаще всего причиной каких-то неблагоприятных поступков окружающих людей является недомыслие, а не спланированное желание напасть. Если человек имеет такую установку, то он адекватно оценивает себя и ждет того же от других. Они не тратят время на выискивание недостатков в себе или окружающих, а сотрудничают конструктивно.

- Я хороший, а ты плохой. Такая установка характерна для тех, кто может самоутвердиться только за счет окружающих. Эти люди в собственных проблемах обвиняют окружающих, пытаются выместить раздражение из-за того, что не получается задуманного. Человек с такой установкой способен возвыситься в собственных глазах только после того как унизит других людей.

- Я плохой, а ты хороший. Чаще всего установку можно обнаружить у тех людей, которые имеют низкую самооценку или страдают комплексом неполноценности. Они стремятся отдалиться от людей, не входят в близкий контакт или, наоборот, выбирают сильную личность и «присасываются» к ней. Для людей с такой установкой характерна хроническая депрессия.

- Я плохой и ты плохой. Самая сложная установка. Из-за подобных мыслей человек перестает радоваться жизни, интересоваться людьми, его постоянными спутниками становятся безнадежность и тоска. Таких людей отличает легкая раздражительность, непредсказуемость и склонность к депрессиям в тяжелой форме. Они не видят выхода из ситуации, а потому не могут изменить свое мировоззрение.

Обычно у человека в голове смесь из всех установок, но есть одна, которая занимает доминантную позицию.

Откуда берутся наши установки?

Установки в подсознании формируются из нескольких источников.

1. Собственный негативный опыт Например, однажды вы потерпели неудачу в какой-то значимой жизненной ситуации. И в дальнейшем, сталкиваясь

с чем-то подобным, испытываете страх, что провал повторится вновь. В результате начинаете избегать тех ситуаций, которые могут привести к повторению сценария: например, отказываетесь от попыток чего-то достичь, избегаете серьезных отношений и т. д.

2. Родительские утверждения Дети воспринимают эмоционально заряженный посыл от родителей безусловно, принимают как истину. И даже во взрослой жизни такие установки могут полностью определять решения и поступки человека. Например, если ребенок постоянно слышит от родителей, что деньги - это зло и их Психология и жизнь Апрель, 2020 невозможно заработать честно, ему будет довольно сложно выстроить «здоровые отношения» с деньгами в дальнейшей жизни. А утверждение матери о том, что на мужчин нельзя полагаться и следует опираться только лишь на себя, может серьезно осложнить личную жизнь ее дочери.

3. Народная мудрость Войны, революции, голод, репрессии - все это складывалось определенным образом в мировоззрении людей. Так формировались установки, которые обеспечивали людям выживание. Например, демонстрировать достаток было опасно для жизни. Сегодня подобные установки потеряли актуальность, но продолжают влиять на жизнь многих, усложняя ее. И неосознанно мы можем передавать эти установки дальше по цепочке, своим детям. Сюда же относятся народные премудрости. Например, вбитая в вашу голову поговорка "Кто работает, тот ест" может стать причиной того, что вам во время работы может все время хотеться есть.

Установки: польза и/или вред?

Убеждения, живущие в голове, не всегда однозначно помогают или вредят. Например, установка «я со всем справлюсь сам(а)» может ставить запрет на просьбы о помощи, когда человек на самом деле в ней нуждается. Но в критичных ситуациях, когда действительно многое зависит от самого человека, она поможет справиться с трудной задачей. Выявив определенную мысленную установку (например, «я не могу позволить себе отдых»), вы можете разобрать, насколько она помогает или вредит вашей жизни в настоящее время, ответив письменно на следующие вопросы:

- чего мне помогло достичь это убеждение?
- что оно помогло предотвратить?
- что позволяет мне эта установка?
- что она позволяет мне иметь?
- кем она позволяет мне быть?
- что правильного в том, что... (сформулировать убеждение)?
- какие преимущества оно мне дает?
- как это убеждение можно использовать против других?

- ставило ли это мое убеждение других в неудобное положение?
- к чему оно меня привело?
- из чего меня вывело это убеждение?
- что оно решило в моей жизни? Для определения последствий определенной установки напишите ответы на следующие вопросы:
 - что случится, если это убеждение верно?
 - что случится, если оно неверно?
 - чего не случится, если оно верно?
 - чего не случится, если оно неверно?

Обнаружив установку, которая вам мешает, выписываете ее и рядом пишете: «ОТМЕНИТЬ!». Наше подсознание прекрасно понимает такие методы. Еще вариант: можно переписать установку в позитивном ключе: вместо «деньги - это опасно», «деньги - это безопасно».

Психологические установки

Понятие «установка» в 1920-е годы сформулировал грузинский психолог и философ Дмитрий Узнадзе. Психологические установки — это определённая модель поведения человека, заложенная в его подсознании. Когда мы попадаем в знакомую ситуацию, мы не оцениваем её объективно, а действуем по сформированному заранее шаблону, утверждают специалисты.

Что ещё надо знать об установках?

Установки есть у каждого. И это не зависит от возраста, пола, религии. Установка — самая примитивная реакция на раздражитель. То есть это первое, что приходит нам в голову по принципу «вижу — делаю». Установки свойственны даже животным. Собака запомнила, кто к ней добр, а кто не очень, и равняет людей по этому принципу. На одних лает, к другим бежит. Установка базируется на предшествующем опыте. В прошлый раз с похожим человеком у нас не сложилось, в этот раз даже пробовать не станем. Установка в одной сфере проявляется и в других. Если мы считаем, что без большого труда ничего не достичь в работе, мы будем стараться изо всех сил и в личной жизни, что в итоге, вероятно, приведет к выгоранию. Бывают не только негативные установки. Если человек регулярно делает акцент на негативе, впоследствии ему будет сложно проработать его. От установок зависит продуктивность. Чем больше негативных установок имеет человек, тем сложнее ему будет прийти к своей цели. Чем сильнее эмоции после события, тем прочнее установка. Если мы сильно где-то обожглись, будем избегать любых подобных ситуаций с максимальным упорством.

Установки человека состоят из трёх компонентов:

- то, что мы чувствуем (аффективный компонент);
- то, что мы делаем (поведенческий компонент);

- то, что мы думаем по этому поводу (когнитивный компонент).

Мотивационные психологи говорят, что есть две стратегии, которые влияют на наш выбор:

- 1 стратегия — стремление к успеху;
- 2 стратегия — избегание неудач.

Когда мы руководствуемся стратегией избегания неудачи, а не достижения успеха, мы упускаем многие возможности в своей жизни.

Мы также порой совершаем непродуктивный выбор, когда ошибочно приписываем свои успехи и неудачи исключительно себе или исключительно другим, взяв на себя всю ответственность или переложив её на других. Избавиться от всех установок невозможно, да и не нужно. Некоторые наши глобальные установки делают нас именно теми людьми, которых любят и уважают. К тому же, многие установки существенно упрощают жизнь и даже охраняют нашу безопасность, позволяя поступать автоматически в простых повседневных ситуациях. Но когда решения не приносят желаемого результата, а поведение тормозит развитие, значит, какие-то из наших убеждений изжили себя.

Возможно, в нас говорят установки, если мы:

- часто используем слово «должен» вместо «хочу»;
- излишне эмоционально реагируем на какие-то не слишком значимые события;
- любим обобщать («все они такие», «так всегда получается», «никто меня не любит»);
- бросаемся стереотипными фразочками и поговорками («горбатого могила исправит», «будешь много знать — скоро состаришься», «лучше синица в руках, чем журавль в небе»).

Как избавиться от мешающих установок?

Трансформируем мешающие убеждения. Например:

- «Я недостаточно компетентен» заменим на установку «У меня много компетенций, солидный багаж знаний и достаточно опыта, которым я готов поделиться»;
- «Я постоянно болею» — «Я быстро выздоравливаю, у меня отличный иммунитет»;
- «Я никому не нужен» — «Я нужен семье, друзьям, коллегам и т. д.».

Психологи рекомендуют на каждое негативное убеждение находить три продвигающих. Чтобы усилить эффект, можно записывать их на листок напротив обесценивающих. Со временем положительные эмоции способны выгнать отрицательные установки.

Структура установки.

Хоть мы и дали определение, установка в психологии — это не только набор слов, тут кроется глубинный смысл. Из чего же состоит установка?

- когнитивный фактор;
- чувственный образ или эффективный компонент;
- поведенческий компонент или действия, которые относятся к объекту оценивания.

Многие ученые трактуют это понятие следующим образом: установка в психологии — это конкретное состояние, которое присуще целому объекту. Что это значит? Речь идет о том, что это состояние определяет психологическую и физическую организацию человека или поведение в той или иной ситуации. Сюда же относится готовность что-либо сделать, чтобы удовлетворить собственные потребности.

Психологи считают, что установка отражает психологическое состояние и внешнее ощущение человека. При этом именно она является своеобразным связующим звеном, которое соединяет отдельные состояния индивида и его функции.

Бытует мнение, что психологическая установка бывает двух видов — фиксированная и первичная. Это не значит, что они строго фиксированы, одна с легкостью перетекает в другую, но собственные функции сохраняются у каждой.

Рекомендации/References/ Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Н. Занковский «Психология лидерства», «Институт психологии РАН» Москва-2011
2. Бандурка, А.М. Психология управления / А.М. Бандурка, С.П. Бочарова, Е.В. Землянская. – Харьков: Фортуна, 1998. – 463 с.
3. Бандурка, А.М. Если вы менеджер... Элементы психологии управления в повседневной работе / А.М. Бандурка, Р.Л. Кричевский. – М.: Дело, 1996. – 381 с.
4. Брасс А.А. Управление: основные понятия, виды, функции. Учебное пособие / А.А. Брасс. – Минск: ООО «Мисанта», 2002. – 185 с.
5. Глушаков В.Е. Современные технологии менеджмента, маркетинга и психологии / В.Е. Глушаков., Т.И. Глушакова. – Минск: Технопринт, 2000. – 464 с.
6. Маслов Е.В. Управление персоналом предприятия. Учебное пособие / Е.В. Маслов. – Минск: ИНФРА-М, 2000. – 312 с.

USE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH

Javliyeva Feruza Mirzamurodovna,
an English teacher at the Tashkent Tourism and Hotel Technical College,
Yashnabad District, Tashkent.

Najimitdinova Nilufar Nazirovna,
a special subject teacher of Tashkent tourism and hotel technical school,
Yashnabad district, Tashkent city.

Аннотация: в статье рассматривается необходимость и важность применения компьютерных технологий на уроках иностранного языка. В данной статье рассматривается использование инновационных технологий в проектной методике преподавания иностранного языка. В этой статье приводятся различные руководства, соответствующие различным этапам обучения, и рассматриваются примеры занятий и уроков с интерактивными досками, компьютерами и планшетами для обучения языку. Без сомнения, последующее развитие инноваций в области данных и использования компьютеров в классе быстро меняет среду в классе.

Ключевые слова: инновация, обучение иностранному языку, инновационные технологии, интерактивная доска, планшет, планшет, компьютер, образовательные приложения.

One of the most effective ways to improve the process learning foreign languages is the use of computer and Internet technologies in the education system. The computer-information model of education is a kind of transitional phase from a system of traditional teaching methods foreign languages to a modern system of open education Information Society. The basis for the introduction of information technologies in the process of training a specialist informatization. It is an application of the following computer technology: the creation of virtual libraries, educational software means (electronic libraries, electronic textbooks, dictionaries), creating information databases of universities and schools, multimedia programs, Virtual debate clubs, counseling centers, teaching information environments of universities and schools, databases, directories containing all educational courses for different types of educational institutions. The introduction of computer and information teaching methods significantly increases the level of information competence students, in particular, developing skills such as the use of Internet capabilities to find the necessary educational information; use of reference electronic publications; application information resources in training activities, the use of communicative potential of information and computer technology for advice, the necessary information, etc. The

central theme in the text. He emphasizes the importance of acquiring knowledge and wisdom to lead a fulfilling and successful life. The text discusses moral principles and moral values that individuals should uphold in their personal and social lives. It promotes virtues such as honesty, justice, kindness. "Kutadgu Bilig" provides insights into the qualities of a good leader and the principles of management. It gives instructions on how rulers should rule justly and wisely for the benefit of their people. The text emphasizes the importance of social harmony and unity among people. It helps to develop cooperation, mutual respect and understanding between individuals in society. "Kutadgu Bilig" also goes deep into spiritual and religious topics and highlights the importance of faith and belief in the formation of character and behavior of a person. The text explores the concept of fate and fate, and reflects the idea that some events in life are predetermined and beyond the control of a person. These themes and messages in "Kutadgu Bilig" provide valuable insights into Turkish culture and society contributes to its permanent importance as a literary-philosophical work.

CONCLUSION.

"Kutadgu Bilig" is a rare written monument of the Turkic peoples, embodying the cultural, philosophical and political values of the Karakhanid dynasty in Central Asia. The work continues to inspire and enlighten readers with its age-old wisdom, moral teachings and literary artistry, preserving the heritage of the intellectual heritage of the Turkic peoples, for the future generations to appreciate and preserve.

REFERENCES

1. Yusuf Khos Hajib. Good knowledge. - T.: Science. 1971
2. Vahidov R.J., Eshankulov N.R. History of Uzbek classical literature. Part 1. - T.: Writers' Union of Uzbekistan. 2006.
3. Yusuf Khos Hajib. Kutadgu Bilig (Knowledge that leads to happiness). // T - "Uzbekistan" creative publishing house 2019. 240 pages
4. Yusuf Khos Hajib. Kutadgu Bilig (Knowledge that leads to happiness). // T - "Uzbekistan" creative publishing house 2019. 240 pages
5. A. Soghoi. H. Karamatov. Timur's rules. // T - New way Polygraph Service. 2019. 160 pages
6. Yusuf Khos Hajib. Kutadgu Bilig (Knowledge that leads to happiness). // T - "Uzbekistan" creative publishing house 2019. 240 pages

SHTANGENSIRKULDA O`LCHASHNI O`RGANISH

Rahimova Volida Karim qizi
Buxoro davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Shtangensirkul juda ko`p sohalarda ishlaydigan mutaxassislarning asosiy ish qurollaridan biridir. Shu bilan birgalikda shtangensirkulda ishlashni ilk boshlashda inson yetarlicha qiyinchilikka uchraydi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida ushbu maqolamda shtangensirkulda ishlashni soddaroq qilib yoritishga harakat qildim.

Kalit so`zlar: Shtangensirkul, nonius, qattiq jism, zichlik, XBS, geometrik shakllar, hajm, massa, uzunlik.

ASOSIY QISM


Jismlarning chiziqli o`lchamlarini o`lchash uchun odatda biz chiziqli o`lchov asboblardan (ma'lum masshtabda darajalangan shkalali asboblardan), chunonchi shtangensirkul, mikrometr va analitik tarozidan foydalanamiz. Bu o`lchov asboblarining asosiy qismi ulardagi ma'lum masshtabda darajalangan shkala va noniuslar hisoblanadi. Hamma vaqt ham shkala jismning chiziqli o`lchamlari (uzunligi, eni, chuqurligi, balandligi) ni aniq o`lchash uchun qo`l kelavermaydi. Shuning uchun jismning o`lchab bo`lmaydigan chiziqli qismini aniq o`lchashga imkon beradigan moslama – n o n i u s d a n foydalaniladi.

Nonius deb, asosiy shkalaning o`lchash aniqligini oshirishga imkon beradigan, asbobning qo`zg`aluvchan qismiga o`rnatilgan va asosiy shkala bo`ylab harakatlanadigan shkalali moslamaga aytiladi.

Shtangensirkul - chiziqli noniusli o`lchov asboblardan biridir. (1-rasm). Shtangensirkul 25-30 sm uzunlikdagi jismlarning uzunligini 0,1 dan 0,05 mm gacha aniqlikda o`lchashga imkon beradi. Shtangensirkul (1) qo`zgalmas barmoqli, (4) millimetrli po`lat lineyka va chizg`ich bo`ylab (2) qo`zg`aluvchi barmoqli (3) noniusdan iboratdir. (1) va (2) barmoqlar bir-biriga tekkanda, chizg`ich va noniusning nollari mos kelishi kerak. M jismning uzunligini o`lchash uchun u barmoqlar orasiga qo`yilib (qattiq siqmasdan) (7) muruvvat yordamida mahkamlanadi. So`ngra esa chizgich va noniusdan olingan qiymatlar yordamida jism uzunligi (L) quyidagi formuladan topiladi:

$$L = \left(k + \frac{n}{10}\right) mm \quad (1)$$

k- masshtabli chizgich bo`linmalarining mm dagi butun soni, n- noniusning masshtabli chizgichidagi bo`linmalar soni.



1-rasm. Shtangensirkul: 1 va 2 barmoqlar, 3- nonius, 4- pulat lineyka, 5- ichki diametрни o`lchash barmoqlari, 6- sterjen.

Shtangensirkul yordamida nonius bo`limlarini aniqlash mashqni bajarish tartibi

Noniusdan foydalanib aniq o`lchashni amalga oshirish uchun bir necha geometrik figuralarni andozalarini o`lchaymiz. Shtangensirkul yordamida silindning balandligi **h** va diametri **d** ni o`lchaymiz.

O`lchash quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Shtangensirkulning **(1)** va **(2)** oyoqchalari o`rtasiga silindrni qo`yib (oyoqlar bilan sekin qisiladi) **(7)** vint bilan sekin mahkamlanadi.

2. Silindrning balandligi va diametri o`lchanadi, hisoblash **(4)** chizg`ichning butun soni nonius shkalasining **0** dan chap tomonidan olinadi, nonius shkalasining bo`linmalari **(4)** shkalasining xohlagan bo`limiga mos kelishi mumkin. Hisoblash **(1)** formula orqali bajariladi. Shtangensirkul oyoqchalari orasida silindrni yengil aylantirib **3** marotaba o`lchash bajariladi. **(1)** formula orqali bajarilgan hisoblashlar natijalari 1- jadvalga yoziladi.

1- jadval

№	O`lchana-digan buyumlar	k	n	L	⟨L⟩	ΔL	⟨ΔL⟩	$E = \frac{\langle \Delta L \rangle}{\langle L \rangle} 100\%$
1.	Shar diametri							
2.	Silindr diametri							
3	Silindr balandligi							

XULOSA

Demak, shtangensirkulda o`lchash uchun $L = \left(k + \frac{n}{10}\right) mm$ formuladan foydalanamiz. Shtangensirkul yopiq turganida **(4)** chizg`ichning va **(3)** noniusning nollari ustma-ust tushadi. Uzunligi yoki qalinligi o`lchanayotgan buyumimiz qancha uzun bo`ls, noniusning noli chizg`ichning nolidan shuncha uzoqlashadi. Birinchi

topishimiz kerak bo`lgani bu formuladagi **k**. Buning uchun noniusning noliga qaraymiz, u po`lat chizg`ichning qaysi soniga to`g`ri kelgan bo`lsa shu sonni mm.da butun qismini yozib olamiz. Masalan noniusimizning noli chizg`ichdagi 22.3 sm.dan o`tgan ammo 22.4 sm.ga bormagan. Butun qismi 22.3 sm ya`ni, $k=223$ mm bo`ladi. Endi esa noniusdagi 0 dan 10 gacha bo`lgan raqamlarga qarab chiqamiz, qaysidir bittasi po`lat lineykadagi sonlarning ixtiyoriy biri bilan ustma-ust tushgan bo`ladi. Noniusdagi ana o`sha ustma ust tushgan son bu formuladagi **n**, masalan noniusdagi 7 raqami po`lat chizg`ichning qaysidir shtrixi bilan aynan ustma ust tushdi, demak $n=7$. Shunda buyumimizning uzunligi: $L = 223 + \frac{7}{10} = 223,7$ mm yoki 22,37 sm.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Remizov A.N. “Tibbiy va biologik fizika” 2005
2. Rahimova V., Bozorov E. Klinik dozimetriya fanining “Ionlovchi nurlanishlar va ularning asosiy xususiyatlari” nomli ma`ruza mashg`ulotini “Fishbone” metodini qo`llash orqali o`qitish //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
3. Xojiuevich B. E. et al. “AJURLI ARRA” METODI YORDAMIDA TALABALARGA “ASOSIY DOZIMETRIK KATTALIKLAR” MAVZUSINI TUSHUNTIRISH //E Conference Zone. – 2022. – S. 11-15.
4. Xojiuevich B. E. et al. “BESHINCHISI ORTIQCHA” METODI YORDAMIDA TALABALARGA “KLINIK DOZIMETRIYA UCHUN ASBOBLAR” MAVZUSINI TUSHUNTIRISH //pedagogs jurnali. – 2022. – T. 15. – №. 1. – S. 93-97

SUYUQLIKLARNING ZICHLIGINI PIKNOMETR YORDAMIDA ANIQLASH

Rahimova Volida Karim qizi
Buxoro davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Piknometr – bu muayyan hajmga ega boʻlgan shisha idishdir. Piknometr yordamida suyuqliklar va sochiluvchan jismlarning zichligini aniqlash mumkin. Ushbu maqolada distillangan suvning zichligini $1000 \frac{kg}{m^3}$ ekanligini bilgan holda, piknometr yordamida suyuqliklarning zichligini aniqlash yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Zichlik, piknometr, suyuqliklar, fizika, massa, hajm, tarozi.

ASOSIY QISM

Hajm birligidagi modda massasi bilan oʻlchanadigan kattalikka **zichlik** deyiladi.

$$\rho = \frac{m}{V}$$

Bunda ρ - zichlik, birligi XBS da $[kg/m^3]$

Piknometr – bu muayyan hajmga ega boʻlgan shisha idishdir. Koʻpchilik piknometrlarning boʻyinlarida belgi mavjud boʻlib, belgigacha suyuqlik quyiladi.

Suyuqlik zichligini topish formulasini keltirib chiqaramiz. Toza suv zichligini topish formulasini chiqarish uchun piknometr massasini M , piknometr va suv massasini M_0 bilan belgilaymiz. U holda toza suv zichligi ρ_0 quyidagicha topiladi:

$$\rho_0 = \frac{M_0 - M}{V} \quad (1)$$

bu yerda V - piknometr hajmi. Tekshiriladigan suyuqlik solingan piknometr massasini M_1 bilan belgilasak, suyuqlik zichligi ρ_s quyidagicha aniqlanadi:

$$\rho_s = \frac{M_1 - M}{V} \quad (2)$$

(1) va (2) formulalardan V larni topamiz:

$$V = \frac{M_0 - M}{\rho_0} \quad \text{va} \quad V = \frac{M_1 - M}{\rho_s}$$

V - hajmlar oʻzaro teng boʻlganligi uchun:

$$\frac{M_0 - M}{\rho_0} = \frac{M_1 - M}{\rho_s}$$

boʻladi, u holda ishchi formula quyidagicha topiladi:

$$\rho_s = \frac{M_1 - M}{M_0 - M} \cdot \rho_0 \quad (3)$$

(3) formula yordamida tekshiriladigan suyuqlikning zichligi topiladi.

Bu yerda

ρ_0 – tajriba oʻtkazish temperaturasidagi suvning zichligi (tablitsadan olinadi);

M – bo`sh piknometrning massasi;

M_0 – suvli piknometrning massasi;

M_1 – tekshiriladigan suyuqlik bilan birga piknometrning massasi.

Ishni bajarish tartibi

1. Piknometrning tozaligiga ishonch hosil qilgandan so`ng, piknometr massasi M ni o`lchang.

2. Piknometrغا toza suv soling (begigacha), M_0 suvli piknometrning massasini o`lchang. (Bu holda piknometr devorlarida xavo pufakchalari bulmasligi kerak).

3. Suvni bo`shating va piknometrni yuvib quruting. So`ngra piknometrغا tekshiriladigan suyuqlikni soling (belgigacha), M_1 - tekshiriladigan suyuqlikli piknometr massasini o`lchang.

4. (3) formula yordamida tekshirilayotgan suyuqlikning zichligini hisoblab toping. Uy temperaturasida (18-20⁰C) suvning zichligi $\rho_0 = 1 \left[\frac{g}{cm^3} \right] = 1000 \left[\frac{kg}{m^3} \right]$

5. Tajribani 3 marta takrorlab natijalarni jadvalga yozing.

6. Tekshirilayotgan suyuqlik zichligining o`rtacha qiymatini hisoblang:

$$\langle \rho_s \rangle = \frac{\rho_1 + \rho_2 + \rho_3}{3}$$

7. Absolyut xatoliklarni hisoblang:

$$\Delta \rho_{s1} = |\langle \rho \rangle - \rho_1|$$

$$\Delta \rho_{s2} = |\langle \rho \rangle - \rho_2|$$

$$\Delta \rho_{s3} = |\langle \rho \rangle - \rho_3|$$

8. O`rtacha absolyut xatolikni hisoblang:

$$\langle \Delta \rho_s \rangle = \frac{\Delta \rho_1 + \Delta \rho_2 + \Delta \rho_3}{3}$$

9. Haqiqiy qiymatni hisoblang:

$$\rho_h = (\langle \rho_s \rangle \pm \langle \Delta \rho_s \rangle)$$

10. Nisbiy xatolikni aniqlang:

$$\varepsilon = \frac{\langle \Delta \rho_s \rangle}{\langle \rho_s \rangle} \cdot 100\%$$

11. Natijalarni jadvalga yozing.

No	M [kg]	M ₀ [kg]	M ₁ [kg]	ρ_s [$\frac{kg}{m^3}$]	$\langle \rho_s \rangle$ [$\frac{kg}{m^3}$]	$\Delta \rho_{s1}$ [$\frac{kg}{m^3}$]	$\Delta \rho_{s2}$ [$\frac{kg}{m^3}$]	$\Delta \rho_{s3}$ [$\frac{kg}{m^3}$]	$\langle \Delta \rho_s \rangle$ [$\frac{kg}{m^3}$]	ε [%]
1										
2										
3										

XULOSA

Demak, suyuqliklar zichligini piknometr yordamida aniqlash uchun avvalo distillangan suvning zichligini $\rho_0 = 1 \left[\frac{g}{cm^3} \right] = 1000 \left[\frac{kg}{m^3} \right]$ ekanligidan foydalanib, ishchi formulani keltirib chiqarishimiz kerak ekan. So`ngra ishni boshlab, bo`sh piknometr massasini o`lchab M harfi bilan, suvli piknometr massasini o`lchab M_0 bilan va o`rganilayotgan suyuqlikli piknometr massasini M_1 bilan belgilab olib, $\rho_s = \frac{M_1 - M}{M_0 - M} \cdot \rho_0$ formula yordamida suyuqlikning zichligini hisoblashimiz kerak ekan. Albatta o`lchash davomida yo`l qo`ygan xatoliklarimizni ham hisoblab chiqishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Remizov A.N. “Tibbiy va biologik fizika” 2005
2. Rahimova V., Bozorov E. Klinik dozimetriya fanining “Ionlovchi nurlanishlar va ularning asosiy xususiyatlari” nomli ma’ruza mashg’ulotini “Fishbone” metodini qo’llash orqali o’qitish //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
3. Xojiuevich B. E. et al. “AJURLI ARRA” METODI YORDAMIDA TALABALARGA “ASOSIY DOZIMETRIK KATTALIKLAR” MAVZUSINI TUSHUNTIRISH //E Conference Zone. – 2022. – S. 11-15.
4. Xojiuevich B. E. et al. “BESHINCHISI ORTIQCHA” METODI YORDAMIDA TALABALARGA “KLINIK DOZIMETRIYA UCHUN ASBOBLAR” MAVZUSINI TUSHUNTIRISH //pedagogs jurnali. – 2022. – T. 15. – №. 1. – S. 93-97

TO`G`RI GEOMETRIK SHAKLDAGI QATTIQ JISMLARNING ZICHLIGINI ANIQLASH

Rahimova Volida Karim qizi
Buxoro davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Jismlar turli shaklga ega: shar, silindr, kub, parallelpiped va hokazolar. Ammo barcha hollarda zichlikni aniqlash uchun jism massasini jism hajmiga bo`lish kifoya. Faqatgina shakliga ko`ra jismlarning hajmini topish yo`llari turlicha bo`ladi. Ushbu maqolada bunga kengroq to`xtalib, zichlik haqidagi tushunchaga ega bo`lish bilan birga jismlarning zichligini aniqlash va o`lchash usuli yoritilgan.

Kalit so`zlar: Qattiq jism, zichlik, shtangensirkul, XBS, geometrik shakllar, hajm, massa.

ASOSIY QISM

Hajm birligidagi modda massasi bilan o`lchanadigan kattalikka zichlik deyiladi.

$$\rho = \frac{m}{V}$$

Bunda - ρ - zichlik, birligi X.B.S. da (kg/m^3)

Jismlarning zichligi odatda bosim ortishi bilan ortadi, temperaturasi ko`tarilganda kamayadi. Suv uchun aksincha ya'ni 4°C dan boshlab temperaturaning kamayishi bilan suvning zichligi ham kamayadi. Jismlar bir holatdan ikkinchi holatga o`tganda ya'ni, qattiq jismning suyuq, suyuqlikning gaz holatiga o`tganda ularning zichligi sakrab o`zgaradi. Cho`yan qotish va suv muzlash paytida zichligi kamaya boradi. Qattiq va suyuq jismlar zichligini aniqlashning har xil usullari bor. Berilgan ishda to`g`ri geometrik shaklga ega bo`lgan qattiq jismlarning zichligi aniqlanadi.

Sharning zichligini aniqlash

Ish bajarish tartibi:

1. Jismning massasi m taroziga tortiladi.
2. Sharning diametri D shtangensirkul bilan o`lchanadi.
3. (1) formula yordamida sharning radiusi R topiladi.

$$R = \frac{D}{2} \quad (1)$$

4. (2) formula yordamida sharning hajmi V topiladi.

$$V = \frac{4}{3} \pi R^3 \quad (2)$$

5. Tarozidan o`lchangan shar massasini uning hajmiga bo`lib, zichlik quyidagi formula bo`yicha hisoblab topiladi:

$$\rho = \frac{m}{V} \quad (3)$$

6. Tajribani kamida 3-5 marta takrorlab, jism zichligini aniqlashda qilingan absolyut va nisbiy xatoliklar, hamda zichlikning haqiqiy qiymati aniqlanadi.

7. Tajribada olingan kattaliklar 1-jadvalga yoziladi.

1-jadval

T/R	D	R	m	ρ	$\langle \rho \rangle$ >	$\Delta \rho$	$\langle \Delta \rho \rangle$ $\rho >$	$\varepsilon(\%)$
1								
2								
3								

Silindrning zichligini aniqlash

1. Jismning massasi **m** taroziga tortiladi.
2. Silindrning diametri **D** va balandligi **h** shtangensirkul bilan o`lchanadi.
3. (1) formula yordamida silindrning radiusi **R** topiladi.
4. (3) formula yordamida silindrning hajmi **V** topiladi.

$$V = \pi R^2 h \quad (4)$$

5. Tarozidan o`lchangan silindr massasini uning hajmiga bo`lib, zichlik quyidagi formula bo`yicha hisoblab topiladi:

$$\rho = \frac{m}{V} \quad (5)$$

6. Tajribani kamida 3-5 marta takrorlab, jism zichligini aniqlashda qilingan absolyut va nisbiy xatoliklar hamda zichlikning haqiqiy qiymati aniqlanadi.

7. Tajribada olingan kattaliklar 2-jadvalga yoziladi.

2-jadval

T/R	D	R	h	m	ρ	$\langle \rho \rangle$ >	$\Delta \rho$	$\langle \Delta \rho \rangle$ $\rho >$	$\varepsilon(\%)$
1									
2									
3									

Zichlikning o`rtacha arifmetik qiymati:

$$\langle \rho \rangle = (\rho_1 + \rho_2 + \rho_3) / 3$$

Absalyut xatolik:

$$\Delta \rho_1 = |\langle \rho \rangle - \rho_1|;$$

$$\Delta \rho_2 = |\langle \rho \rangle - \rho_2|;$$

$$\Delta \rho_3 = |\langle \rho \rangle - \rho_3|$$

O`rtacha absalyut xatolik:

$$\langle \Delta \rho \rangle = \Delta \rho_1 + \Delta \rho_2 + \Delta \rho_3 / 3$$

Haqiqiy qiymat:

$$\rho = \langle \rho \rangle \pm \langle \Delta \rho \rangle$$

Nisbiy xatolik:

$$E = \frac{\langle \Delta \rho \rangle}{\langle \rho \rangle} \cdot 100 \%$$

XULOSA

Demak, qattiq jismlarning zichligini aniqlash uchun avvalo jismning chiziqli o'lchovlarini o'lchab, hajmini hisoblab olamiz. Jismning shakliga qarab, shar bo'lsa $V = \frac{4}{3}\pi R^3$ formuladan; silindr bo'lsa $V = \pi R^2 h$ formuladan hajmini hisoblaymiz. Keyin jismni taroziga tortib massasini o'lchaymiz va $\rho = \frac{m}{V}$ formuladan zichlikni aniqlashimiz mumkin. Bundan tashqari to'g'ri geometric shaklga ega bo'lmagan jismlarning hajmlarini suyuqlikka to'la botirib, sizib chiqqan suyuqlikning hajmini menzurkada o'lchab olish bilan ham aniqlashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Remizov A.N. "Tibbiy va biologik fizika" 2005
2. Rahimova V., Bozorov E. Klinik dozimetriya fanining "Ionlovchi nurlanishlar va ularning asosiy xususiyatlari" nomli ma'ruza mashg'ulotini "Fishbone" metodini qo'llash orqali o'qitish //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
3. Xojjuevich B. E. et al. "AJURLI ARRA" METODI YORDAMIDA TALABALARGA "ASOSIY DOZIMETRIK KATTALIKLAR" MAVZUSINI TUSHUNTIRISH //E Conference Zone. – 2022. – S. 11-15.
4. Xojjuevich B. E. et al. "BESHINCHISI ORTIQCHA" METODI YORDAMIDA TALABALARGA "KLINIK DOZIMETRIYA UCHUN ASBOBLAR" MAVZUSINI TUSHUNTIRISH //pedagogs jurnali. – 2022. – T. 15. – №. 1. – S. 93-97

UMUM TA'LIM MAKTABLARIDA ADABIYOT DARSLARIDA CHINGIZ AYTMATOVNING "OQ KEMA" ASARINI O'TISHDA FSMU METODIDAN FOYDALANISH

Do'smatova Sevinch

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali
Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish:*

o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabalari

e-mail: dusmatovasevinch@gmail.com

Yaxshiboyeva Farangiz

e-mail: firdavsyaxshiboyev633@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umum ta'lim maktablarida Adabiyot darslarini tashkil qilishda FSMU metodlaridan foydalanish haqida ma'lumotlar berildi. Darslarda ushbu metodlardan foydalanishda ularning ijobiy va salbiy tomonlariga to'xtalib o'tildi. Adabiyot darsliklarida berilgan mavzular yuzasidan metodlar qo'llash tahlili ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar. FSMU metodi, fikr, sabab, misol, umumlashtirish, tahlil, mantiqiy fikrlash, darslik.

Dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor hissini kamol toptirishda "Adabiyot" darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib boramiz. Buning uchun hamma vaqt o'qituvchi, o'z o'quvchilariga nisbatan ko'proq shug'ullanib, bilim va mahoratini tinmay oshirib borishi zarur. Shundagina u o'z nomiga munosib faoliyat kishisi bo'ladi. Mehnatning samarasi sifatida har bir darsi mazmunli, maroqli orginalligi bilan farqli ekanligini, uning mashg'ulotlariga o'quvchilar tabora qiziqib borayotganliklarini, shogirdlarining dars jarayonida o'quv materiallarini, o'zaro ishtiyoq bilan o'rganishga kirishib faollik va uyushqoqlik ko'rsatayotganliklarini qalbdan his etadi. Bunday natijaga, shubhasiz dars jarayonida oqitish usullaridan har tomonlama foydalanish orqali erishish mumkin.

FSMU texnologiyasi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv seminari yakunida o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida, o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlashga o'rgatadi. Adabiyot darslarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun FSMU metodidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda badiiy asardan hikmatli fikr shohbayt yoki maqol tanlab FSMU metodi orqali tahlil qilamiz.

Bu texnologiyadan foydalanishda o'qituvchi har bir tinglovchiga FSMU

texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bunda: F—fikringizni bayon eting

S—fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;

M-ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U—fikringizni umumlashtiring.

O'qituvchi tinglovchilar bilan bahs mavzusini belgilab oladi. Yakka tartibdagi ish tugagach, tinglovchilar kichik guruhlariga ajratiladi va o'qituvchi kichik guruhlariga "FSMU" texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi. Kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlari taklif etiladi. O'qituvchi kichik guruhlarining yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini so'raydi. Mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi. Umum ta'lim maktablarida adabiyot darslarida Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asarini o'tishda FSMU metodidan foydalanishni ko'rib chiqamiz.

Namuna: 1. Vazifa: "Oq kema" –o'lmas asar" mavzusi bo'yicha fikrlaringizni bayon qiling.

F -"Oq kema" qissasi Ch.Aytmatovning eng mashhur va o'lmas asarlaridan biridir.

S -"Oq kema" asarida yaxshilik va yomonlik, mehr va shafqatsizlik, muhabbat va nafrat kabi asriy muammolar o'z ifodasini topganligi bois u umrboqiydir.

M -Mo'min chol tabiatidagi soddalik, ezgulik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, kamtarlik O'rozqul timsolidagi shafqatsizlik, takabburlik kabi illatlarga qarshi qo'yilsa, bolakay qalbidagi soflik, mehribonlik xislatlari atrofdagi insonlarning, jumladan, ota-onasining unga befarqligiga qarama-qarshi qo'yiladi. Masalan, Bolakay shoshib turgan bo'lsa ham o'zining sevimli toshlarini erkalab, unga e'tibor bilan qaraydi.

U -qaysiki asar milliy qadriyatlarni, ezgulikni ulug'lar ekan, bu asarning umri boqiydir.

Xulosa qilib aytganda, asarni tahlil qilishda FSMU metodidan foydalanish o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, asar bo'yicha xulosasini mustaqil bayon etishga yordam beradi. Shu bilan birga ushbu metodda o'qituvchi emas ko'proq o'quvchi faol bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.G'ulomova A., Ne'matov X. Ona tili ta'limimazmuni.-T., 2011 yil
- 2.Ziyotova T. Ona tili-ijodiy tafakkurni oshirishning asosiy omili.-Toshkent, 2014 yil
3. Yo'ldoshev J,G'., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-Toshkent, 2013 y

ZULFIYAXONIM SHE'RLARI TAHLILI

Tojmuratova Dilnoza

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish:

o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabalari

E-mail: xaitovsherzod147@gmail.com

Ko'charova Ergashoy

E-mail: kocharoyovatursunoy@gmail.com

Annotatsiya: Zulfiya she'rlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, she'rlarining ruhi vaohangini, Mazmuni va yo'nalishini, avj pardasini, maqsad, g'oya va ideallarini umuminsoniy fikr va Tuyg'ular belgilaydi. Shu ma'noda, Zulfiya ijodining haroratini ta'minlagan omil ham undagi Jo'shqin va faol insonparvarlik, poetik timsol, go'zal tuyg'ular olamidir. Maqolada shoira She'riyatining aynan shu jihatlari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Lirik kechinma, qahramon tabiati, mavzu ko'lami, shoira, ona, ayol, she'riyat, Manzara.

Zulfiya ijodi, u yaratgan poetik asarlar hozirgi o'zbek she'riyatida muayyan ahamiyatga Molikdir. Shoira Zulfiya ijodida xotin-qizlar mavzusining ko'p jihatlari teran yoritilishi, sevgi va Hijron motivlarining haqqoniy badiiy tadqiq etilishi, tinchlik, xalqlar do'stligi g'oyalarining Ancha tasirchan tarannum etilishi tahsinga sazovor. Ma'lumki, Zulfiya tomonidan yaratilgan Asarlarida realistik tasvir tamoyillari kuchayganligi hamda poetik obrazlar olami Kengayganligini ko'rsatadi. O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolaridan biri Shoiraning o'ziga xos, betakror badiiy olamini o'rganish bo'lib, bu masalaning teran atroflicha Tadqiq qilinishi yozuvchining individual mahoratini ko'rsatishga, uning adabiyotimiz Taraqqiyotidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi. Zulfiyaning poetik fikrlash tarzini jiddiy O'rganish, uning asarlaridagi obraz va obrazlilikning tabiati, xarakterini yana ham to'laroq Ochish o'zbek she'riyatidagi katta bir turkum asarlar mohiyatini tushunishga imkon beradi. Dunyo yaralishida cho'g'ning sifatlari ko'p. Bittasi shuki, u doim o'z davrasiga tortadi. Jozibasi bilan jamlaydi. Yana bir siri: u chorlaydi, birlashtiradi: yer zimistonligida hayot davom Etayotganligidan darak beradi. Ana endi shulardan keyin Zulfiyaning butun she'riyatida Jamlash, birlashtirish, davraga chorlash g'oyasi nihoyatda kuchli jaranglaganligi tug'ma g'oya Ekanligini anglatadi. Loaqal mashhur "Mushoira"ni, loaqal "Quyoshli qalam"ni, loaqal "Xotiram Siniqlari"ni eslaymiz. Baxtli damlarning qabariq yulduzlari kulib boqardi Zulfiyaga. "Bu yillarda mening hayotimga Yana bir quvonch to'lqini kirdi. Bu – Hamid Olimjon edi... Hamid

Olimjon mening uchun Talabchan ustoz, mehrlil do'st edi. She'rlarimni ilk bor hayajondan titrab unga o'qirdim. U Ayovsiz tahrir etardi. Yillar o'tdi, yillarning biri bilan qo'shib Hamid Olimjon ham o'tdi... So'ng Hayotimga yo'llar kirib keldi..."

Quyoshdan to'kilganman

Ushlay olaman o'tni –

Deydi Zulfiya. Tug'ma g'oyalarga hayratlanmay ilojing yo'q. Bu g'oyadan u so'nggi damgacha Voz kechmadi: "Sakson yil lovullab so'nmagani o'tman", dedi u oxirida.

Zulfiya she'riyati pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiya-tini g'ajib tashlay oladigan hijron to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha ayollarga, barcha onaiarga, barcha ma'shuqalarga xos, tushunarli, anglanarli bo'lgan she'riyati aslo eskirmaydi. Uning asarlarida halol inson tuyg'ularining porloq yulduzi charaqlab turadi. Xalq orasida "Oydinda", "Sensiz", "Yurak", "Falak", "Bahor keldi seni so'roqlab", "O'g'irlamang qalamim bir kun", "Bo'm-bo'sh qolibdi bir varaq qog'oz" kabi she'rlari, "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Mushoira" kabi she'rlari mashhur. "Uni Farhod der edilar", "Quyoshli qalam", "Xotiram siniqlari" kabi lirik va liro-epik dostonlar muallifi. 1935 yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va uning bevaqt vofotidan so'ng ko'plab mahzun she'rlar yaratgan. Pushkin, Lermontov, Nekrasov, L. Ukrainka, V. Inber va boshqa ko'plab shoirlarning asarlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Zulfiya she'riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho'qqisi bo'lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she'rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo'yoq va timsollarda gavdalanadi. Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson qalb tug'yonlarini o'tkir bilimdoni bo'lib, turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she'rlar, hikoyalar, ocherklar, publististik maqolalar va gazeta xabarlar. Uning ko'p she'rlari SSSR xalqlari tinchligi va do'stligi sari kurashga bag'ishlangan edi. Urush yillari u vatanparvarlik she'rlarini yozgan. U tomonidan, shuningdek, o'zbek bastakorlarining operalariga librettolar ham yozilgan, masalan, "Zaynab va Omon" operasiga libretto. Shu bilan birga, turmush o'rtog'i Hamid Olimjon qalamiga mansub "Semurg'" dostoni mavzusi asosida, ertak-sahna asarini ham yozgan. Shoira Zulfiya ijodining poetik olami va estetik qarashlari ham mazkur jarayonning bir halqasini tashkil etadi. Negaki, ijodkor o'z davrining komil farzandi. O'zi yashab turgan ijodiy muhit suvratidan estetik qarashlari shakllanadi. Ustozlari boshlab bergan salmoqli ishlar, keyingi avlod nazaridan izsiz o'tmaydi. Bularni davom ettirganligi uchun bugungi adabiy jarayon o'ziga kerakli va muhim jihatlardan ibrat olishda davom etmoqda. Shuningdek, shoira Zulfiya ijodida ayolga extirom, onaga muhabbat mavzusi alohida o'ringa ega. Zulfiya ijodining turli davrlarida bu mavzuga qayta-qayta murojaat etgan. Natijada shoiraning "Ona", "Ona

ko'ksi", "Mening mehribon onaginam", "Ona ko'ksi" singari she'rlari vujudga kelgan. Ona va farzand muhabbatini, ayollikning botiniy va zohiriy qiyofasini ochib beruvchi lirik kechinmalar shoira ijodida talaygina.

XULOSA. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Zulfiya lirikasi teran tafakkur va jo'shqin hissiyotdan hosil bo'lgan she'riyatdir. Shoira lirik qahramoni ko'pda yuksak intellekt sohibasi ekanligi sezilib turadi. U biroz o'ychan, ba'zan falsafiy, ba'zida esa jiddiy va ta'sirchan. Shoira ma'naviy-ruhiy izlanishlarida, poetik timsol yaratish jarayonida his-tuyg'ular manzarasi, kechinma tarangligi, o'tkir dramatik vaziyat va kolliziyalar bo'rtib turadi. Unda makon va zamon chegarasining qamrovlari keng, o'tmish, bugun va kelajak voqeligi inson taqdiri, ertasi tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zulfiya. Adabiy o'ylar. - Toshkent: "Fan", 1985;
2. Karimov N.Zulfiya. Ma'rifiy biografik asar. - T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2015
3. Zulfiya "Xotiram siniqlari" to'plami; Izlanishlarim va fikrlarim.

5-SINF “ONA TILI” DARSLIGIDA ADABIY TIL NORMALARINI SHAKLLANTIRUVCHI VA O’QUVCHI SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI QOIDALAR, MASHQLAR VA TOPSHIRIQLAR

Yaxshiboyeva Farangiz Farxod qizi

Samarqand davlat universitetining

Kattaqo’rg’on filiali 3-bosqich talabasi

firdavsyaxshiboyev633@gmail.com

Ilmiy rahbar: Soyipova Dilafruz Rahimovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada 5-sinf “Ona tili” darsligi orqali adabiy til normalarini o’quvchilarda shakllantirish, adabiy til normalarini shakllantiruvchi qoida, mashq va topshiriqlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: 5-sinf “Ona tili” darsligi, adabiy norma

Adabiy til umumxalq tilining ishlangan, sayqallantirilgan va ma’lum normaga solingan formasidir. Adabiy til dialektlardan, oddiy so’zlashuv tillaridan va jargonlaran farqlanadi, shu xalq vakillari uchun umumiy xarakterga ega. Shunday ekan o’quvchilarga dialekt, lahja, sheva va adabiy til tushunchalarini farqlab berish, qanday o’rinlarda adabiy tildan, qanday o’rinlarda shevadan foydalanish kerakligini o’quvchilarga to’g’ri tushuntirib berish va adabiy til normalarini o’quvchilarda shakllantirish ona tili va adabiyot o’qituvchilarining zimmasidadir. Bu masalalarni o’rgatish, albatta, 5-sinf (yuqori sinfning dastlabki bosqichi) “Ona tili” darsligidan boshlanadi. Darslik, dastlab, takrorlash mavzularidan boshlanadi ya’ni mustaqil so’z turkumlarini takrorlashdan. Chunki, o’quvchilar boshlang’ich sinfda

mustaqil so’z turkumlari bo’yicha boshlang’ich bilimga ega bo’lgan bo’lishadi. Shundan so’ng til bo’limlariga o’tiladi. Dastlab fonetika va grafika: tovush va harf o’quvchiga farqlab beriladi, unli va undosh tovushlar, nutq tovushlarining aytilishi va yozilishi kabi savodxonlikni oshiruvchi mavzular bilan boshlanadi. Fonetika bo’limining mavzulari o’quvchilarda savodxonlikni oshiruvchi eng muhim mavzulardir. Fonetika ona tilining umuman eng boshlang’ich fundamenti hisoblanadi. Bu mavzulardagi topshiriq va mashqlar ham qoidalarga va mavzuga mos berilgan faqat, bir kamchiligi shundaki, grammatik mashqlar ko’p berilgan. Grammatik topshiriq va mashqlar soni bir mavzuda uch yoki to’rtta ba’zi mavzularda undan ham ko’p. Kitobda ba’zi o’rinlarda o’quvchining yoshi va

qiziqishlarini hisobga olinmaydigan o’rinlar ham bor. Og’zaki grammatik mashq va topshiriqlarning o’rniga o’quvchilarni qiziqtiradigan rasmlil, boshqotirmali, audioli topshiriqlar va o’yinlar bo’lsa o’quvchining darsga qiziqishi ortadi. Har bir unli va undoshning yozilishi va aytilishiga alohida to’xtalib o’tilgan. Bu

ayni damda o'quvchining savodxonligi oshishi, to'g'ri talaffuz me'yorlariga amal qilishi uchun yetarlicha asos bo'la oladi. Bu esa adabiy til normalariga amal qilish demakdir. 5-sinf "Ona tili" darsligida 37- mavzudan boshlab imlo va talaffuz me'yorlari mavzulari boshlanadi. Har bir harfni to'g'ri talaffuz qilish uning to'g'ri yozilishini ta'minlab beradi. To'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish esa ona tili va adabiyot o'qituvchilarining muhim vazifalaridan biri. Chunki o'quvchilarining yozma va og'zaki nutqi ayni shu vaqtda shakllanayotgan bo'ladi. Orfografik va orfoepik mavzular izchillikda uzviy berilgan. Tovush qanday tovushdan keyin qanday holda talaffuz qilinishi va qanday yozilishi qoidalar, topshiriqlar va mashqlar yordamida yoritilib berilgan. Masalan "a" tovushi zamon, hamon, baho, jahongir kabi so'zlarda "o" kabi aytilsa ham, ammo "a" yoziladi. "O" tovushi Pomir, okean, konsert singari so'zlarda "a", tonna, orden kabi so'zlarda "o" kabi aytilsa-da, "o" kabi yoziladi. Termos, tormoz, director kabi so'zlarning oxirgi bo'g'ini "i" ga moyil aytilsa ham, "o" yoziladi. Undoshlarning jarangli-jarangsiz jufti

bilan yoki o'xshash talaffuz qilinadigan tovushlarning berilib, ularning izohlanishi o'quvchilarning o'xshash tovushlarning farqlashi uchun qulayliklar yaratadi. Masalan: g va k, d va t, f va v, j va dj, q va g', x va h, z va

s. Mavzular imlo lug'ati qoidalari asosida berilgan. Avval, unli va undoshlar imlosi va talaffuzi, keyin asos va qo'shimchalar, qo'shib yozish, ajratib yozish, bosh harflar, chiziqcha bilan yozish, va ko'chirish qoidalari imlosi va talaffuzi ketma-ketligida berilgan. Ammo aynan imlo lug'atidagi ketma-ketlik berilmagan. Har bir harfning to'g'ri yozilishi, har bir tovushning to'g'ri talaffuz qilinishi o'quvchi savodxonligi rivojlanishi uchun, adabiy tilining shakllanishi uchun yaxshigina asos bo'ladi. Mavzuda berilgan tovushlarni me'yor asosida talaffuz qilinishi va yozilishi uchun kichik matnchalarning berilishi esa o'quvchining grammatik mashqlardan chekinib, darsga qiziqishini orttiradi. Ammo adabiy til me'yorlarini shakllantiruvchi matnlar, mashqlar, va topshiriqlar ham kam berilgan. Imlo va talaffuz me'yorlariga oid mavzulardan so'ng leksikologiya bo'limi boshlanadi. har bir matn yoki mashq, topshiriqlardan so'ng ularda uchragan notanish so'zlarning ma'nosi alohida berilib o'tilgan. Matn va lug'at ustida ishlash nomli alohida mavzular ajratilib, o'quvchilarning lug'at boyligini oshiruvchi jarayonlarga alohida e'tibor qaratilgan. O'quvchilarda adabiy til me'yorlarini shakllantirish ular yuqori sinfga qadam qo'ygandan boshlanib, shakllantirilib borilishi shart. Bunda albatta o'qituvchining vazifasi katta. O'qituvchi "men maktabgaman" deb tursa o'quvchi ha xuddi shunday qiladi, chunki 5-sinf o'quvchisi uchun o'qituvchi bir daho demakdir. Hattoki, ustozni aytgan narsani ota-onasi noto'g'ri desa ham ota-onasiga ishonmaydi. U ustozini eng mukammal shaxs deb biladi. Afsuski hozirgi o'qituvchilarning aksariyati darsga befarq va juda ko'p qismi darsda adabiy tilda emas, balki shevada gapiradi. Bu esa turli hududlarda tovushlarni turlicha talaffuz qilinishiga va turli xil kelishmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan "i" va "e", "u" va "o" tovushlarining turli hududlarda turlicha talaffuz qilinishi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.5-sinf Ona tili darsligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent 2020

Sh. Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A. Hojiyev, I. Rasulov, X. Doniyorov
Hozirgi o'zbek adabiy tili 1-qism Toshkent "O'qituvchi" 1980

O'zbek tilining imlo lug'ati N. M.Mahmudov Toshkent "Akademnashr" 2013
www.ziyouz.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ҚОРАМОЛЧИЛИК МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ДИНАМИКАСИ ВА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

*Қорақалпоғистон - қишлоқ хўжалиги ва
агротехнологиялар институти уқитувчиси
Балташев Журсинбай Муратбаевич*

Аннотация: Ушбу мақолада чорвачилик соҳасининг миллий иқтисодиётдаги аҳамияти, чорвачиликни ривожлантиришга таъсир қилувчи омиллар, шуниндек, ушбу соҳани ривожлантиришдаги қийинчиликлар, уларнинг ечимлари ва истиқболдаги режалари муҳокама қилинган.

Калит сўзлар: чорвачилик, қорамолчилиқ, агросаноат мажмуаси, рентабеллик, қишлоқ хўжалиги, давлат.

Аннотация: В статье обсуждается роль животноводства в национальной экономике, факторы, влияющие на развитие животноводства, а также проблемы в развитии этого сектора, их решения и планы на будущее.

Ключевые слова: животноводство, скотоводство, агропромышленный комплекс, рентабельность, сельское хозяйство, государство.

Annotation: This article discusses the role of livestock in the national economy. The power factors influencing the development of the livestock sector, as well as the challenges in the development of this sector, connectivity solutions and future plans are also considered.

Key words: animal husbandry, livestock, agro-industrial complex, profitability, agriculture, statehood.

Бугунги кунда қорамолчилиқ тармоғи ривожланишида бир қатор муаммолар мавжуд. Булар, йирик чорвачилиқ фермаларида чорва бош сонининг камлиги, чорва бош сони билан унга озуқа етиштиришдаги камчилиқ ва номутаносибликлар, тармоқнинг илмий-техник ривожланиш ва замонавий техника воситалари билан таъминланишдан орқада қолиши, тармоқда ишлаб чиқарилган маҳсулотлар ҳамда АСМнинг бошқа тармоқларидаги товарлар нархлари ўртасидаги тафовутлар ва бошқалар. Шунинг учун ҳам, бизнинг фикримизча, қорамолчилиқни самарали ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш жараёнида истиқболда куйидаги муаммоларни бартараф этишга устувор аҳамият қаратиш керак:

аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотлари ва саноатнинг хомашёга бўлган талабини қондириш ҳамда қишлоқ ҳудудларини барқарор ривожлантириш;
мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ва мустаҳкамлаш;
озиқ-овқат маҳсулотлари импортига бўлган қарамликни қисқартириш;

қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ва товар ишлаб чиқарувчиларнинг рақобатбардошлигини ошириш;

қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилар даромадларини ошириш чоратадбирларига устувор даражада эътибор қаратиш;

қорамолчилик тармоғи инфратузилмасини ривожлантириш, озиқ-овқат, хомашё ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари бозорини уйғун тарзда ўзаро манфаатли муносабатлар доирасида самарали бошқариш;

наслчилик ишларини замон талаблари даражасида ташкил этиш;

тармоқни ҳудудларнинг табиий-иқлим ва тупроқ шароитларидан келиб чиқиб жойлаштириш ва ихтисослаштириш;

қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларнинг ўз истеъмол товарлари билан ички ва ташқи озиқ-овқат бозорларига эркин кириши ва уларни экспорт қилиши учун шароит яратиш ва тегишли имтиёзлар бериш;

тармоқда кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш имкониятини яратувчи иқтисодий механизм элементларидан самарали фойдаланиш ва рентабеллик даражасига эришиш;

қишлоқ хўжалиги, шу жумладан қорамолчилик маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг моддий манфаатдорлигини ошириш;

қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларни давлат томонидан адресли ва мақсадли қўллаб-қувватлаш;

қорамолчилик маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи субъектлар фаолиятини инновацион техника ва технологиялар асосида модернизациялаш ва диверсификациялашнинг инвестицион лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий қилиш;

хорижий давлатларнинг чорвачилик, шу жумладан қорамолчиликни ривожлантириш, маҳсулотлар сифатини яхшилаш ва харажатларини камайтириш билан боғлиқ илғор тажрибаларига доир ахборот ресурслари билан таъминлаш, малака ошириш учун чет эл сафарларини ташкил қилиш ва ҳ.к. Юқоридаги долзарб вазифалардан келиб чиқиб, Чорва молларини сифатли озиқлантиришни ташкиллаштиришда сигирларнинг маҳсулдорлигини оширишнинг чекловчи омили – бу рациондаги озуқа моддаларининг энергияси ҳисобланади. Энергия етишмаслиги сигирга озуқа етишмаслиги билан эмас, балки унинг ошқозонининг чекланган сифими билан боғлиқ. [3]

Кундалик сут берадиган сигирлар учун озуқа 1 кг қуруқ моддасида қуйидаги оптимал энергия концентрацияси ҳисобланади: 8-12 кг - 0,72-0,78 озуқа бирлиги; 14-18 кг - 0,81-0,87 озуқа бирлиги; 20-24 кг - 0,90-0,99 озуқа бирлиги; 26-30 кг - 0,96-1,00 озуқа бирлиги; 32-38 кг - 1,04-1,08 озуқа бирликлари ва 40-44 кг - 1,08-1,15 озуқа бирликлари [124]. Шундай қилиб, агар сут маҳсулдорлиги кунига 44

кг бўлган сигирга 44 та озуқа бирлиги керак деб ҳисобласак, бу 38,2 кг (44:1,15) куруқ моддадан иборат бўлса, унда биз жуда тўйимли рацион ҳақида гапираётганимиз аниқ бўлади. Акс ҳолда, сигир бунча жуда кўп озуқа емайди [1].

Рационда ҳазм қилинган оқсил ва шакар-оқсил нисбати кўпайишига эътибор қаратилади. 1 озуқа бирлигида 142 г ҳазм қилинган оқсил бор ва шакар-оқсил нисбати 1,3:1,0, норма эса 1,1:1,0.

Қорамолчиликда ҳайвонларни озиклантиришнинг учта асосий тизими қўлланилади: экстенсив, ўртача ва интенсив. Экстенсив тизимда ҳайвонларни доимий ёки даврий равишда қорамолларни етарли даражада озиклантирмаслик, мавсумий яйловлардан фойдаланиш, қўллаб-қувватловчи озиклантиришни таъминлаш ва чорва молларининг ўртача маҳсулдорлигини олиш билан тавсифланади.

Қорамолчиликни ривожлантиришда энг аввало чорва маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи хўжаликлар ва уларга хизмат кўрсатувчи объектларни ҳам масофа, ҳам ресурслар таъминоти нуқтаи назардан тўғри жойлаштириш учун барча имкониятларни яратиш зарур. Объектларни тўғри жойлаштириш ердан оқилона фойдаланиш, транспорт харажатларини камайтириш, капитал кўйил-маларни тежаб сарфлаш, асосий воситалардан самарали фойдаланиш, ишлаб чиқариш самарадорлигининг юқори бўлишига имкон яратади. Яъни, ишлаб чиқариш объектларни жойлаштиришда моддий-техника таъминоти, маҳсулот ишлаб чиқаришдан тортиб, то уни йиғиш, сақлаш ва бошқа хизматларнинг ўзаро боғлиқлиги ва кетма-кетлигига эътиборни қаратиш лозим.[1]

Ҳозирда чорвачилик маҳсулотлари асосан деҳқон хўжаликларида етиштирилаётган бўлиб, моллар зотдорлиги ва ирсий хусусиятлари сут ҳамда гўшт маҳсулотларини кескин кўпайтириш имконини бермайди. Шунинг учун деҳқон хўжаликларидаги чорва моллари наслини яхшилаш борасида чоратадбирлар ишлаб чиқиш. Шу йўналишда чорва моллари зотини яхшилаш ва аҳолига зотдор моллар етказиб бериш тизимини яратиш билан бирга чорвадорларни сифатли чорва маҳсулотлари ишлаб чиқаришга ундовчи омилларни ишга солиш муҳим аҳамият касб этади.

Чорвачилик маҳсулотларига белгиланаётган нархлар ва уларни етиш-тириш учун зарур бўлган озуқалар, шунингдек, айниқса саноат маҳсулотлари нархлари ўртасидаги номутаносибликни юмшатиш мақсадида тармоқ фаоли-ятида дотация ва субсидия дастакларини мақсадли ва манзилли қўллаш.

Маълумки, республикамизда қорамолларнинг маҳсулдорлиги талаб даражасида эмас. Бунинг асосий сабаблари зотдор молларнинг камайиб кетганлиги ва насли уруғларни етказиб бериши тизимидаги монополь вазият, молларни сунъий уруғлантириш марказлари ва мутахассисларининг етишмаслиги, урчитишдаги технологиянинг эскирганлиги каби муаммоларга бо-риб

тақалади. Бинобарин, соҳадаги бу каби мавжуд муаммоларни ҳал этиш давлат даражасида дастурий чора-тадбирлар ишлаб чиқиш ва амалиётга тез-кор татбиқ этишни тақозо қилади.[2]

Чорвачилик соҳаси билан боғлиқ илғор технологик асбоб-ускуналар, юқори самарали хайдов, экиш, ишлов бериш ва ўрим-йиғим теникалари, мини цехларни сотиб олиш учун фермер ва деҳқон хўжаликларига имтиёзли, узоқ муддатли кредитлар ажратиш самарали тадбирлардан эканлигини ҳам алоҳида эътироф этиш жоиздир.

Йирик қишлоқ марказлари ва чорвачилиги ривожланган ҳудудларда хусусий тадбиркорлик асосида омихта ем, дағал хашак ва бошқа турдаги озуқа экинлари, насли молларни кўпайтириш, шу жумладан хориждан олиб келиш ва сотишга ихтисослашган аукцион бозорлари, зооветеринария ва наслчилик ишлари, қушхона ва бошқа турдаги хизматларни кўрсатишга ихтисослашган шаҳобчаларни ташкил этиш ва ривожлантиришни ҳар томонлама иқтисодий рағбатлантириш.

Чорва молларини суғурталаш тизимини яхшилаш, шу жумладан хориждан келтириладиган насли чорва молларини суғурталаш бўйича мах-сус дастур ишлаб чиқиш ва унда суғурта тўловини асосан наслчилик тизи-мини ривожлантириш чора-тадбирларига сарфлаш, унинг бир қисмини дав-лат томонидан молиялаштиришни амалга ошириш мақсадга мувофиқ.

Бугунги кунда фермер ва деҳқон хўжаликларини ем-хашак экинлари уруғлари билан таъминлаш масаласи ҳам ўз ечимини топмаган, чунки улар зарур уруғлик материалларини қиммат нархларда асосан хусусий тадбир-корлардан сотиб олишмоқда ва қисман ўзлари ҳам етиштирмоқда. Зотан, нафақат ушбу йўналишда, балки ҳозирги шароитда республика ва унинг ҳудудлари кесимида қишлоқ хўжалиги корхоналари даромадларининг паст-лиги боис наслчилик, ем-хашак экинларини уруғчилиги, чорвачилик тармоқ-ларига зарур замонавий техника ва технологиялар ишлаб чиқариш соҳалари-да ҳам миллий илмий-тадқиқот ва тажриба-ихтирочилик ишларини такомил-лаштириш, ушбу муҳим жараёни давлат томонидан молиялаштириш чора-тадбирлари ва уларни амалиётга татбиқ масалаларига устувор даражада эътибор қаратиш лозим.[3]

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш самарадорлигини таҳлил қилишда, бизнингча, биринчи навбатда, натурал кўрсаткичлардан фойдаланиш лозим. Лекин, маълумки, натурал кўрсаткичлар қишлоқ хўжа-лиги маҳсулотлари етиштириш самарадорлигининг фақат бир томонини ёритади ва корхона ёки тармоқ фаолиятини тўлақонли баҳолаш имконини бермайди. Қорамолчилик тармоғини самарали ривожлантириш учун табиий-иқлим, биоэкологик, техник-технологик, ташкилий-иқтисодий, ижтимоий-ҳуқуқий йўналишларни мужассамлаштирувчи ва ўзаро боғловчи барча муҳим омиллардан оқилона фойдаланиш чора-тадбирларига асосий эътибор қаратиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бершицкий Ю.И. Теоретико-методические аспекты инновационного развития агроэкономики. // В сб. трудов «Российская экономическая модель-7: от стагнации к развитию», Краснодар, ФГБУ "Российское энергетическое агентство" Минэнерго России Краснодарский ЦНТИ – филиал ФГБУ "РЭА" Минэнерго России, 2017 г. – с. 288 –304
2. <http://www.fao.org/publications/card/en/c/9655af93-7f88-58fc-84e8-d70a9a4d8bec/>
3. <https://president.uz/uz/lists/view/3117>
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI	3
2	JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING O'RNI	8
3	METAFORANING KUNDALIK HAYOTIMIZDAGI O'RNI	12
4	DIDAKTIK O'YIN QOIDALARI	19
5	TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING MAZMUNI VA MUAMMOLARI	22
6	DIDAKTIK O'YINLAR TA'LIM BERISH VOSITASI SIFATIDA	26
7	HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING ISTIQBOLLARI	29
8	O'ZBEKISTONDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI SOHASI VA UNDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR	34
9	4G VA 5G SIMSIZ TARMOQLARINING XUSUSIYATLARI	38
10	FIZIKA FANINI O'QITISHDA TALABALAR MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI MUAMMOLI TA'LIM ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	43
11	TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MATEMATIKA VA FIZIKA FANLARARO ALOQADORLIKNING AHAMIYATI	47
12	ANIQ INTEGRALNING FIZIK VA IQTISODIY MASALALARDA QO'LLANILISHI	50
13	КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ УСТАНОВКИ ВЛИЯЮТ НА ЖИЗНЬ ЧЕЛОВЕКА	55
14	USE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH	61
15	IJTIMOIIY ISHDA KASBIY QADRIYATLAR	64
16	FUNKSIYALARNI GRAFIGINI CHIZISHDA MAPLE DASTURI MISOLIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	67
17	D SINIF KUCHAYTIRGICHLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	70
18	АНАЛИЗ IP-ТЕЛЕФОНИИ В ГИБРИДНЫХ СЕТЯХ	72
19	ХАРАКТЕРИСТИКА НЕТРАДИЦИОННЫХ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ	74
20	ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧАЩИХСЯ КАК СРЕДСТВО РЕАЛИЗАЦИИ ЛИЧНОСТИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ	78
21	ВИДЫ СЛОВАРНОЙ РАБОТЫ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	83
22	ВИДЫ ПИСЬМЕННЫХ РАБОТ ТВОРЧЕСКОГО ХАРАКТЕРА	87
23	АКТУАЛИЗАЦИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ	91

24	ДЕЯТЕЛЬНОСТНЫЙ МЕТОД В РАЗВИТИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ (ВО ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ)	94
25	ВЛИЯНИЕ ГРУППОВОЙ И ПАРНОЙ РАБОТЫ НА РАЗВИТИЕ МОТИВАЦИИ	98
26	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ	101
27	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ	108
28	AXBOROT-TEXNALOGIYA VOSITALARI SAMARADORLIK GAROVI	111
29	O'ZBEKISTON UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA IJTIMOIIY ISH KASBIY FAOLIYATI TAKOMILLASHUVI YO'NALISHLARI	114
30	YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA "OILA, MAHALLA VA TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIGI" KONSEPSIYASINING O'RNI VA AHAMIYATI	118
31	МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARDA INGLIZ TILI O'QITISH METODLARI	123
32	ЗНАЯ РУССКИЙ И АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК В НАМАНГАНЕ, УЗБЕКИСТАН	126
33	KUTADGU BILIG IS A RARE WRITTEN MONUMENT OF THE TURKIC PEOPLES	130
34	SHTANGENSIRKULDA O'LCHASHNI O'RGANISH	133
35	SUYUQLIKLARNING ZICHLIGINI PIKNOMETR YORDAMIDA ANIQLASH	136
36	TO'G'RI GEOMETRIK SHAKLDAGI QATTIQ JISMLARNING ZICHLIGINI ANIQLASH	139
37	UMUM TA'LIM MAKTABLARIDA ADABIYOT DARSLARIDA CHINGIZ AYTMATOVNING "OQ KEMA" ASARINI O'TISHDA FSMU METODIDAN FOYDALANISH	142
38	ZULFIYAXONIM SHE'RLARI TAHLILI	144
39	5-SINF "ONA TILI" DARSLIGIDA ADABIY TIL NORMALARINI SHAKLLANTIRUVCHI VA O'QUVCHI SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI QOIDALAR, MASHQLAR VA TOPSHIRIQLAR	147
40	ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ҚОРАМОЛЧИЛИК МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ДИНАМИКАСИ ВА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ	150

***Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.*


**Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2024-г.





OPEN  ACCESS

